

# Tohir MALIK

# Husni xulq



963	83
Р. Уаим	М 22
Гусни зулғ	

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgari berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

~~611-860~~

~~2811-414~~

13.000.000.000



83  
M 22

Tohir Malik

# HUSNI XULQ

963

G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2016

UO'K 389.2  
KBK 83.3(5O')  
M 22

**Tuzuvchi**  
*Nargiza Umurzoqova*

**Malik, Toxir**


Husni xulq / Toxir Malik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 144 b.

Dono fikrni, o'tkir hikmatni, teran tafakkurni, so'z xazinasining duru javohirlarini o'zida mujassam etgan rang-barang hikmatli so'zlarni o'z ichiga olgan ushbu kitob nutqimizni o'stiradi, qalbimizda his-hayajon uyg'otadi, o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga undaydi.

Kitobda jamlangan so'zu iboralar, aforizmlar muallifning "Odamiylik mulki" kitobidan saralab olingan bo'lib, o'ylaymizki, Siz aziz o'quvchilarning bilim saviyangizni o'stirib, nutqingizni ravshan va ta'sirchan qiladi, hayot yo'lingizni tanlay bilishingizga, murakkab jumboq hamda muammolarga to'g'ri yechim topishingizga yordam beradi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatgo'yingiz bo'ladi.

UO'K 389.2  
KBK 83.3(5O')

© Toxir Malik  
© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyi, 2016



## I SH Q

Hikmat – bitmas-tuganmas xazina. Xarjlaganing bilan kamaymaydi. Asraganing bilan unga nuqson yetmaydi. Hikmat shunday liboski, kiyganing bilan eskirmaydi.

\* \* \*

Donolar demishlarkim: “Sen o’zingni ko’rmoq istaysanmi? U holda ko’zgudagi tashqi qiyofangga emas, ichingdagi ko’zguga boq”. Biz esa, kunda necha bor ko’zguga qaraymiz? Qalbimizgachi?

\* \* \*

Chayonning zahari badangadir, beradigan azobi esa bir kun, yarim kun davom etadi. Yomon axloqning qalb sofligiga beradigan zarari esa qo’rqinchliroq, o’limdan keyin esa abadiyan va yo minglarcha davom etadigan qo’rqulikdir.

\* \* \*

Bu dunyoning odamlari bir-birlariga mahram bo’lishni istasalar, do’stlik yo’lida o’z aziz jonlarini ham ayamaydilar. Bunday odamlar sadoqatli asl do’stlardir.

\* \* \*

Do'st yo'lidagi bog'lardan biri – yaxshilikni e'tirof etishdir.

\* \* \*

Do'stlik olamida kibr quyoshidan bahra olish mukofoti – yulduzsiz tundir.

\* \* \*

Bu foniy dunyo – imtihon dunyosi ekan, har bir avlod bu imtihondan o'ziga xos tarzda o'tadi. Har bir avlodning afzalliklari va gunohlari ham bo'ladi.

\* \* \*

"Seni otang pushtida, onang qornida tarbiyalab dunyoga keltirdim. Dunyoga kelganingdan so'ng ham turli-tuman ne'matlar bilan tarbiya qildim. Xo'sh, nega endi niyatiningni buzib, mendan o'zgani do'st bilding?"

\* \* \*

Xushmuomalalik – do'stlik bog'idagi daraxtlarga hayot suvi beruvchi bir chashma.

\* \* \*

Do'stlikning avvali – tanishmoqlik. Ta'bir joiz bo'lsa, tanishish – do'stlik manziliga olib boruvchi bir yo'ldir. Agar bu yo'ldan to'g'ri bormay, moyintar-soyintar, egri-bugri qadam tashlansa, g'iybat, ig'vo, hasad ariqlaridan suv ichib turilsa, o'rtada dushmanlik paydo bo'lishi, shubhasizdir.

\* \* \*

Ustozlar hikoya qiladilar:

“Bir odam cho’lda ketayotib badbasharani ko’radi va undan: “Sen kimsan?” – deb so’raydi. Badbashara: “Men sening yomon amallaringman”, – deydi. U odam: “Sendan qutulishning iloji bormi?” – deb so’raganida, u: “Bor, buning uchun Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning go’zal axloqiga ega bo’lishing va unga salotu salom yo’llashing kerak!” – deb javob bergen ekan.

\* \* \*

Odamning o’zi qadrli emas, odamiyligi qadrli.

\* \* \*

Har kishining taqdirini Alloh hali tug’ilmasidan belgilab qo’ygan. Ammo kishining ro’parasida ikki yo’lni ham bergen: biri – hidoyat, ikkinchisi – zalolat. Bu yo’llardan qay birini tanlash uchun esa unga aql, zehn va farosat ham berilgan.

\* \* \*

Otaning ish-amali farzandiga singsa, uning xulqida jilvagar bo’ladi. Bolani tergab nazorat qilish ota-onaya yuzining yorug’ligini ta’minlaydi. Tarbiyadan tashqari, bola bebosha va yaramaslik sari og’adi. Erka bo’lib o’sgan o’g’il-qizlar xatti-harakati ota-onaga mung va alam keltiradi.

\* \* \*

Odamning kamoli faqat sog'liq va kuchdan iborat bo'lmay, balki jismonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat.

\* \* \*

Biz farzandlarimiz taqdiri uchun hujayralarning eng olis nuqtasigacha, vujudning har bir zarrasiga qadar javobgar bo'lgan kishilarmiz.

\* \* \*

Kishidagi fazilat go'yo farzand kabi, uni avaylab-asrash va yanada barkamol etish lozim.

\* \* \*

Insonning ulug'ligi o'zini idora va tarbiya qilish kuchiga ega bo'lishi bilan bilinadi.

\* \* \*

Rohatda yashashni istasang – dilingni hirsdan pok qil.

\* \* \*

O'zgaga tarbiya berishdan ko'ra, o'zni tarbiya etmoq yuz chandon og'irroqdir. O'zgaga tarbiya berish uchun bilim yoki hayot tajribasiga tayanib, toqatingiz yetganicha nasihat qilasiz. Tarbiyalanuvchi nasihatlarining qulooqqa olmasa, qo'l siltab qo'ya qolasiz. Kishi o'zini tarbiya qilish uchun esa juda mustahkam irodaga ega bo'lishi darkor. Chunki o'zni tarbiya etmoqlik vujudingizga hukmronlikni da'vo etayotgan nafs va shayton bilan olishib, yengmoqlikdir.

\* \* \*

Botqoqlikda yuvinib, poklanishga urinishdan naf yo‘q.

\* \* \*

Insonning inson bo‘lishiga bois tarbiyadir va u uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmgaga va mashqqa.

\* \* \*

Bosh aql va ilmgaga to‘lib-toshsa ham, axloqni sira unutmaslik kerak: inson o‘zidagi ma’naviy jihatlarni, vijdon va nafsni tarbiyalashi, ehtirosini boshqara olishi, xunuk odatlarni tark etishi, ilmiy yutuqlarini insoniyat foydasiga yo‘naltirishi kerak.

\* \* \*

Ikki musulmonning birlashgani ikki qo‘l kabitdir: bir-birini poklaydi. Bitta qo‘l chala yuvadi, o‘zidan boshqasini yuvolmaydi. Ammo ikki qo‘l bir-birini tozalaydi.

\* \* \*

Hazrat Hofiz Sheroziy deydilarkim: “Dono qariyalarning nasihatiga baxtli yoshlargina qulq soladilar”.

\* \* \*

Mast odamga “ichma” deb nasihat qilish – shamolga qarshi qichqirish kabitdir. G‘azabga minib birovni so‘kayotgan odamning qulog‘iga ham so‘kishning gunoh ekani haqidagi nasihatlar kirmaydi. Nasihatgo‘y tarbiyasidagi odamning yoshi, aql darajasini, ayni damdagisi ruhiy holatini ham hisobga olish shart.

\* \* \*

Alhol, ilm olish ham tarbiyaning asosidir.

\* \* \*

Go'zallikka maftunlik – har bir ishni go'zal tarzda, yana go'zal axloq bilan bajarishni talab etadi.

\* \* \*

Qo'l urgan har bir ishni go'zal va mukammal qilish, eng yuksak darajada, eng sifatli tarzda, muvaffaqiyatli ado etish uchun yaxshi tarbiya berilmog'i zarur.

\* \* \*

Islom – so'zdan – ma'noga, shakldan – ruhga, zohirdan – botinka kirib borishni biladi.

\* \* \*

Din – axloqni tuzatishning eng yaxshi yo'lidir.

\* \* \*

Axloq – insonlar orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim omil.

\* \* \*

Yovuzlik, yomonlik, razolat – insondagi yomon xulqning suyukli farzandlari hisoblanadi va uning uch manbai bor: nafs, shayton va jaholat.

\* \* \*

O'tmishda donolar o'limlari arafasida nimalardan afsus-nadomatlар chekishgan bo'lsa, o'sha ishlardan tiyil!

\* \* \*

Payg'ambarimiz (s.a.v.) marhamat qilganlar: "Olimlar – payg'ambarlarning vorislaridir".

\* \* \*

Zarradek biror narsa ko'zga tushsa, albatta, ko'zning ko'rishini o'zgartiradi. Uning ko'rishi narsa tushmasidan ilgaridek bo'lmaydi. ...Bir ahli muhabbatning ko'ngliga Allohdan boshqa narsaning muhabbati tushsa, albatta, Alloh taoloni sevmog'i o'zgaradi.

\* \* \*

„Ota-onasini hurmat qilmagan farzand o'z farzandlaridan hurmat talab qilishi nojoizdir.

\* \* \*

O'g'ilning topgan mulki ham, hatto o'zi ham ota-onaning mulkidir.

\* \* \*

Oq bo'lish – ota-onaga ozor berish, ranjitish va buyruqlarini bajarmaslikdan iboratdir. Ota yoki onaning noqobil farzandiga qarab "seni oq qildim", deb e'lon qilishi shart emas.

\* \* \*

Farzandning hayotiga sabab bo'ladigan birinchi quvvat – ona jismidagi qondir.

\* \* \*

Otasi xasta ekan. Katta akasi aqiba marosimiga tayyorlanayotgan ekan. Bizda bunaqa odat ko'p uchraydi. "Otam (yoki onam) ko'rib qolsinlar", deb to'y yoki boshqa marosimni tezlatamiz. Bu, albatta, yaxshi niyat. Ammo bu niyat ortida "otam (yoki onam) o'lsa to'yim qolib ketadi (to'yga ataganlarim azaga ishlatilib ketadimi) degan hadik ham bo'ladi, buni yashirmaylik. Xullas, birodarimizning akasi aqiba dasturxoniga olinajak ne'matlarni ro'yxat qilib o'tirganida, xasta ota "quyultirilgan shirin sut ham olib kelgin", deb iltimos qilibdi. Shunda nodon o'g'il o'ylamay-netmay "bunaqa sut hozir otliqqa yo'q, qaerdan topaman", debdi. Xasta ota indamabdi. O'sha paytda bu narsaning topilishi chindan ham qiyin edi. Ammo o'g'il otaning ko'ngli uchun "albatta topamiz", desa kifoya edi. "Xudoning marhamatini qarangki, – deydi birodarimiz, – akamning bu gaplaridan ranjib turganimda bir do'stim dadamni yo'qlab, ikkita non bilan o'sha so'ralsan shirin suttan olib keldi. "Mana, dada, so'raganingiz, ochib beraymi?" deb so'radim. Dadam bankani qo'llariga olib, xuddi go'dak boshini silagandek siladilar-da, "keyin ochasan", dedilar. Aqiqadan so'ng dadam hushlarini yo'qotdilar va ko'p o'tmay bu foniylar dunyoni tark etdilar. Ayollar dadam istagan quyultirilgan shirin sutni ochib, shirinliklar pishirib, ma'raka dasturxoniga qo'ydilar..."

\* \* \*

Bemehr qarindoshdan mehr bilgan yod yaxshi.

\* \* \*

Hasan Basriy (r.a.) Allohnning kalomiga asoslangan holda: "Qaysiki odamlarda ilm ko'rinib, unga amal qilishmasa, til bilan aytishni yaxshi ko'rishib, qalblari bilan g'azab-lanishsa, qarindoshlari bilan uzilishgan bo'lishsa, Allah ularni la'natlaydi, kar qiladi va ko'zlarini ko'rmaydigan qilib qo'yadi", deganlar.

\* \* \*

Allah bandalariga faqat ibodatni emas, silai rahmnni ham farz qilgan.

\* \* \*

Allah barcha harakatlarimizni kuzatib turadi, yaqin-larimizga nisbatan ozgina xiyonat qildikmi, bas, jazo muqarrardir.

\* \* \*

– Ey ko'ngil, g'aflatdan uyg'on! Sen yuz o'girib ketmoqchi bo'lган kimsaning kimligini unutma! U akang yoki ukang, u opang yoki singlingdir. Ularga nisbatan qalbingda nafrat uyg'onsa, ulardan yuz o'girib ketishni ixtiyor qilganing damda bir daqiqa shoshma. Ha, seni do'zax olovidan asrab qolish uchun shu bir daqiqa kifoya qiladi. Shu bir daqiqa ichida

Allohning buyurganlarini aql ko'zgusida ko'rib olsang bas. Shu bir daqiqa ichida johillik uyqusidan uyg'onishga o'zingda kuch topa olsang bas. Ey ko'ngil, agar sen shaytonning yo'liga adashib kirib qolgan bo'lsang – qarindoshlaringdan uzoqlashgan bo'lsang, esingni yig'ib olginu Rahmon yo'liga qaytishga shoshil. Qarindoshlaring bilan sen talashayotgan narsa aslida seniki emas. Sen talashayotgan narsa senga ham, qarindoshlaringga ham vafo qilmaydi. Sen talashayotgan narsangga ega chiqishing ham mumkin, ammo ko'p o'tmay uni baribir tashlab, boqiy dunyoga ketasan. Agar qarindoshlaringga silai rahm qilsang, sen oxiratga ularning duolari bilan borajaksan. Oxirat eshigini hamisha o'zingga hamroh iymon nuri bilan ochajaksan. Hisob kuni kelganida Alloh huzurida qarindoshlaringga munosabatingdan hisob bergaysan. Yomonlikka qadam qo'yishdan avval, bir daqiqagina shularni o'yla. Shu bir daqiqa sening boshingga sharaf tojini kiydirur.

\* \* \*

Tasavvur qilaylikki, qiyomatda kimdir umid bilan jannat sari boradi, ammo unga jannatning hech bir eshigi ochilmaydi va hukm aytilariki: "Do'zaxga kir!" deb. Qanday sharmandalik! Qanday fojia bu!

\* \* \*

Rizqni barakali bo'lshini silai rahmonsiz tasavvur etish qiyin.

\* \* \*

Qon-qarindoshlik aloqalarini uzganlar bor joyda osmon eshiklari yopiq bo'ladi, duolar qabul etilmaydi.

\* \* \*

Mening Dilshod ismli birodarim bo'lar edi (Alloh uni rahmat qilsin). Birodarimning mo'minga xos fazilatlari anchagina edi. Ammo bittasi haqida atrofdagi odamlar ham ko'p gapirardi. Bu fazilati uning silai rahm odobini bekamu ko'st bajarishida ko'rinaridi. Uning akasi, besh singlisi va bir ukasi bor edi. Do'stim boshqa hovli-joy qilib chiqib ketgandi. Ammo men uni kunda bo'lmasa ham, kunora ota hovliga, muhtarama ona ziyoratiga kelishiga guvoh bo'lardim. Ba'zan xizmatda ushlanib qolsalar ham, "Ertaga borarman", demasdan odatini kanda qilmay ziyoratga kelardi. Onaga nisbatan bu qadar mehribonliklari uchun ajrlari bisyordir, inshoollo. Ammo besh singilga bo'lgan mehribonliklari onaga bo'lgan ehtiromlaridan kam emasdi. Singillarini ham tez-tez yo'qlashni kanda qilmasdi. "Bir kuni singillarning ko'ngli yarimta bo'ladi. Ular har kuni uylaridan bir odam kelishini kutib yashaydilar. Mening qadam bosib borishdagi zahmatim ularning meni ko'rganlaridagi quvonchlariga arzimaydi", deganlari esimda.

U damlarda masalaning diniy mohiyatidan bexabar edim. Keyinroq bilsam, do'stim Allohnинг farzlaridan birini ado etish bilan band ekan.

\* \* \*

Ayrim odamlar qarindoshlarini yo'qlashni niyat qiladi, lekin kamxarjlik boisidanmi, erinibmi, "quruq boramanmi" degan bahona bilan bu yaxshi amalni bajarishni keyinga suraveradilar.

\* \* \*

Bugungi kunda yo'qlashlarning yangi turlari mayjud. To'rtta non olib, yoki maktub yozib, yoki telefonda hol-ahvol so'rab turish ham mumkin.

\* \* \*

Bizda ko'chalarda turli tarbiyaviy shiorlar osib qo'yish bor. Agar bu odat uygaga ham ko'chirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

\* \* \*

Hasad kasaliga bandai kambag'alroq qarindosh badavlat-roq jigarini ko'ra olmaydi. Hatto, "Xudo nima uchun unga beradi-yu, menga bermaydi?" deb Alloh bilan ham haq talashib qo'yadi. Yoki tinmay tamagirlik qilaveradi. Badavlat qarindosh undan bezadi. Ammo bu ham uning uchun bir sinov, chidab, sabr qilgan ma'qul. Hasadchi qarindosh bizga yomonlikni ravo ko'rsa, biz unga Allohdan insof tilab, duo qilaylik. Allohning uni insof va hidoyat sari burgani bu sabrimiz uchun bizga bergen mukofoti bo'ladi.

\* \* \*

- Xudo menga oqila ayol ne'matini berdi. Men akamdan ranjib, bordi-keldini ham yig'ishtirmoqchi edim. Ahli ayolimga, farzandlarimga ham akamnikiga borishni taqiqlab qo'ygan edim. Bir kuni ahli ayolim akamni tug'ilgan kunlari bahonasida ziyorat qilib kelibdi. Borib kelganini yashirmay o'zi aytdi. G'azablangan edim, bosiqlik bilan tushuntirdi: "Agar akangiz bilan yuzko'rmas bo'lib ketsangiz bilgan-bilmagan qarindoshlar, tanishlar birinchi bo'lib meni ayplashadi. Chunki men kelinman. Jigarlar ozgina xafalashib yurishib, keyin baribir yaqinlashib ketasizlar. Jigardan jigarni uzib bo'lmaydi. Akangiz yomon bo'lsalar siz yaxshi bo'lavering".

Shu gapiga farishtalar omin degan ekanmi, oradan nifoq ko'tarildi.

\* \* \*

"Taloq Alloh tomonidan ruxsat etilgan, oilaning buzilishi ko'ngilsiz hol, lekin fojia emas", deguvchilarga biz deymizki: "Azizim, oila buzilsa er ham, xotin ham boshqa oila qurib yashayveradi. Lekin bolalar-chi? Tirik yetimlarning ohi fojia emasmi? Uyimizdag'i dur va gavharlarni ardoqlab, asraymiz. Oilani-chi?

\* \* \*

Oиласида ҳаловати ўқ одамнинг хизмат joyida ham ҳаловати bo'lmaydi.

\* \* \*

Er baxtni ilm olishda, deb bilsa, xotin bilakni bezovchi tilla bilaguzukda deb hisoblaydi.

\* \* \*

Erga xizmat qilish cho'rilik emasligini to'ydan oldin qizlarimizga yaxshilab tushuntirib qo'yish kerak.

\* \* \*

Eshitgan edim, rostmi-yolg'onmi, bilmayman, lo'lilarning qaysi bir urug'ida to'y chog'i kuyovbola gulxan atrofida o'tirar ekan. Kelin esa bo'yniga xurjun osib olib uning atrofida aylanib: "O'lgunimcha seni boqaman", deb qasam icharkan. Shu zaylda uch mart'a aylanib, qasam ichgach, kuyov unga uylanishga rozilik berarkan. Bozorlarda katta-katta va og'ir-og'ir xaltalarni ko'tarib yurgan ayollarimizni ko'rganimda shu odat esimga tushadi. Bizda nikoh chog'i er zimmasiga oila tashvishi yuklanadi-ku.

\* \* \*

Shuhrat Umarov ismli shoir birodarimiz bo'lardi. (Alloh rahmat etsin!) Shuhrat aka talabalik yillarida yiqilib, bellari mayib bo'lib yotib qolgan edi. Bu holdan xabar topgan shoira singlimiz Nasibaxon taqdirlarini shu nogiron shoir taqdiri bilan bog'lashga qaror qildi. Yosh va go'zal qizning bu qarori ko'pchilikni taajjubga soldi. Taajjublanganlar Nasibaxonning tashqi go'zalligini ko'rardilaru, ammo qalb go'zalligini, iymon go'zalligini ko'ra olmasdilar. Shuhrat aka bilan Nasibaxonga

Alloh solih farzand berdi. Shuhrat aka hali yosh o'g'liga "Onangni Haj safariga olib borasan", deb vasiyat qilgan ekan. Behzod ulg'aygach, otameros avtomashina sotilib, vasiyat bajarildi – Allah ona va bolaga ulug' ibodatni nasib etdi. Nasibaxonning baxtini aynan shu oilada topganiga ishora emasmi bu!

Ulug'lik deganimiz ham shu, qahramonlik deganimiz ham shu! Oilaning muqaddas tushuncha ekaniga ham misol shu.

\* \* \*

Dono xalqimizda: "Uylanishdan oldin ikkala ko'zingni kattaroq och, uylanganingdan keyin bittasini yum", degan tagdor bir hikmat bor.

\* \* \*


"Kimga yaxshi kuyov uchragan bo'lsa, u odam kuyovlik bo'libdi. Kimga yaramas kuyov uchragan bo'lsa, u odam qizini yo'qotibdi", deydilar. Xuddi shuni "Kimning uyiga yaxshi kelin kelsa, qizlik bo'libdi, yomon kelin kelsa, o'g'lidan ajrabdi", deb izohlasak ham bo'ladi.

\* \* \*

Nikoh er va xotinning hayotda sherik bo'lishlari xususidagi ahd-paymondir.

\* \* \*

Bir oilaning buzilishiha sabab bo'lgan voqeani aytib berishgan edi. Uyga ernoq do'sti mehmon bo'lib kelgan.



Xotin xizmatda. Erning ko'zi poyabzallarga tushadi. Qarasa, mehmonning tuflisi yonida xotinining kalishi turibdi. Xotinini chaqirib: "Nega kalishing uning tuflisi yonida turadi?" – deb so'raydi. Xotin, turgan gapki, bunga e'tibor bermagan. Shunda er boshqacharoq da'vo qiladi: "Nima uchun sening kalishing uning tuflisiga kulib qarayapti?" Bu holat sizga tentaknamo bo'lib ko'rinyapti, a? Albatta, bu ahmoqona rashkning ko'rinishi. Shunga o'xhash voqealar takrorlanaver vergach, xotin ikki bolasini olib ajralib ketishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng o'sha rashkchi yana bir necha marta uylandi. Oxiri og'ir kasalga chalingach, so'nggi xotini uni qariyalar uyiga topshiribdi. Bundan xabar topgan o'g'illari otani uylariga olib kelib parvarish qilishibdi. Ona esa bunga monelik qilmabdi. Ikki dunyo saodatiga yetuvchi xotin va farzandlar shunday bo'lishadi.

\* \* \*

"Onangni otingga bepardon ko'rsatma", degan gap bor. Orastalik, o'ziga me'yor qadar zeb berish yaxshi. Biz nima uchundir o'ziga qarab yurishni faqat ayollarga xos, deb bilamiz. Ayrim birodarlarimiz xotini, qizlarini chiroyli kiyintirib qo'yadilaru, o'zlarini oftobda kuyib ketgan do'ppida, yoqasi buralib ketgan ko'yakda yuradilar. Bu yo'qchilikdan emas, ko'proq befarosatlikdan bo'ladi. Befarosat deganda biz erni ham, xotinni ham nazarda tutamiz. Er kiyim-boshga e'tiborsiz bo'lsa, xotin ziyrak bo'lishi kerak, eriga qarashi kerak.

\* \* \*

Ha, olgan xotining johil, xoin chiqsa, xotin emas, boshingga balo olgan sanalasan. Bir uyda ayolning ovozi baland chiqsa, ya'ni er so'zini tinglamasa, unga itoat etmay, gap qaytaraversa, u uyda xayr-baraka bo'lmaydi, bu uydan saodat kutilmaydi, kutilgani bilan yetishib bo'lmaydi.

\* \* \*

Faqir bir odam uylanib, o'g'il farzand ko'rdi. U o'g'lini bag'oyat yaxshi ko'rар edi. Bola tish chiqara boshlagach, ota nolib qoldi:

– Qara, tishlari chiqib qoldi. Endi ovqat yeyishni xohlaydi. Endi men unga ovqatni qaydan topib kelaman?

Erining aqlini, didini bilgan soliha xotin uni shunday deb yupatdi:

– Ey mening soddaginam, tushunchasi nuqsonli erginam. Siz ko'pam vasvasa qilavermang. Farzandimizga tishni Alloh bergen, unga ovqatni ham O'zi beradi. Butun olamga rizq bergen Janobi Haq qodirdir. Go'daklar, chaqaloqlarning ham rizqini beradi. Siz tashvish qilmang.

\* \* \*

Yaxshi xotinga ega birodarlarimizning ayrimlari ba'zan xotinlarini biron-bir davrada maqtab qo'yadilar. Bilmaydilarki, xotinni maqtash odobdan emas, chunki odatda sotilguvchi narsa maqtaladi. Bir yangi uylangan yigit taqdiridan quvonib, maqtanibdi:

– Amaki, keliningiz shunday nazokatli, farosatliki, siz bilmaysiz.

Amakisi jiyaniga nasihat qilib o'tirmay, oqshomda mehmon bo'lib borishini tayinlabdi.

Jiyani kelgach, amaki xotiniga tarvuz olib kelishni tayinlabdi. Xotin tarvuz olib kelibdi. Amaki tarvuzni ko'rib:

"Bunisiyaxhiemas, boshqasini olib kel", debdi. Xotin itoat bilan ikkinchisini olib kelibdi. Shu tarzda arning xohishiga qarab o'n marta boshqa tarvuzga qatnabdi. Ammo lom-lim demabdi. Jiyanning taklifi bilan ertasi kuni amaki mehmonga boribdi. Jigan ham xotiniga tarvuz keltirishni buyuribdi. Birinchi tarvuzni ko'rib: "Bu yaxshi chiqmaydi, boshqasini olib kel", debdi. Juvon itoat bilan ikkinchisini olib kelibdi. Jigan bundan mamnun bo'lib, amakisiga "ko'rdingizmi" deganday kulib qarabdi-da, "bu ham bo'lmaydi, boshqasini olib kel", debdi. Uchinchi tarvuzni ham bo'lmaydiga chiqarib qaytarmoqchi bo'lganida, juvon:

– Nima, bir arava tarvuz tushirib qo'yganmisiz, hali unisini, hali bunisini olib kel, deyaverasiz. Bor-yo'g'i uchta tarvuz bor uyda, yoqmasa turing-da, yaxhisini o'zingiz tanlab oling. Men tanlashni bilmayman! – deb noroziligini bayon qilibdi.

Shunda amaki jiyaniga degan ekan:

– Ko'rdingmi, bolaginam, sen ko'pam maqtanavermagin. Mening uyimda bir donagina tarvuz bor edi. Xotinim yaxshi fe'lli, farosatli bo'lgani uchun menga e'tiroz bildirmay, o'sha bitta tarvuzni o'n marta olib keldi. Lekin biror marta itoatsizlik bilan gap qaytarmadi, labini ham burmadi.

\* \* \*

Oila qurgan kishini kemaga tushgan kishiga qiyoslash mumkin: kema dengiz o'rtasiga yo'l olgan. Dengizda esa po'rtanalar mavjud. Farzandlarning tug'ilishi bu kemani boshqarishni yanada qiyinlashtiradi. Endi kema darg'asidan yanada ko'proq kuch va mahorat talab etiladi.

\* \* \*

Nikohning birinchi maqsadi – odam naslini ko'paytirishdir.

\* \* \*

Farzand tug'ilganidan keyin er ham, xotin ham bir narsani anglab olishlari kerak: farzand tug'ilganiga qadar har bir odam o'zi uchun yashaydi, tug'ilganidan keyin farzandi uchun yashaydi.

\* \* \*

Kim to'rttagacha xotin olishi mumkin? Albatta, boy odam. Kambag'al orzu qilmasa ham bo'ladi. Demak, bu imtiyoz faqat boylar uchunmi? ...Biz undan sabrni talab qilamiz. Boyga esa sabrning keragi yo'q.

\* \* \*

Ko'pxotinlilikning jamiyatga zararini aytib o'tmasak bo'lmas. Tarixga nazar tashlasak, qudratli davlatlarning parchalanib ketganiga guvoh bo'lamiz. Nega shunday?

Buning turli sabablari mavjud. Shu sabablarning eng asosiysi podshohlarning to'xtovsiz va behisob uylanishlaridir. Podshohlarning xotinlaridan tug'ilgan farzandlar rasman aka-uka hisoblansalar-da, toj-taxtga kim o'tiradi, degan muammo ko'tarilganida, jigarbandlikni unutganlar. Hech bo'lmasa, Mo'min Mirzo fofiasini eslaylik. Mo'min Mirzo Badiuzzamonning o'g'li, ya'ni avval zikr etganimiz Husayn Boyqaro ajrashgan xotinning nabirasi. Husayn Boyqaro bu nabirasiga Astraobod viloyatini in'om etgan, keyin esa Xadichabeginidan tug'ilgan o'g'liga hadya etdi. Oqibat Bobur Mirzo yozganiday: "Muhammad Mo'min Mirzoning oning (ya'ni Xadichabeginning) sa'yil bilan o'ldurdilar". Husayn Boyqarodan o'n to'rt o'g'il va o'n bir qiz qolgan edi. Qizlarni hisobga olmasak, bu o'g'illarning qaysi birining ko'nglida taxt egallash istagi bo'lмаган? Amir Temur sultanatini kimlar xarob qildi? Temurzodalar emasmi?..

\* \* \*

Do'stning mehri qalbni tiriltiradi, do'stning xiyonati tirik qalbni vayron qildi.

\* \* \*

Kishi umri davomida adash yo'llarda ko'p qoqiladi. Eng ko'p qoqilish do'st ko'chasida bo'ladi.

\* \* \*

O'z nafsi o'ylab qilingan do'stlikka tez soya tushadi.

\* \* \*

Sening siring faqat o'zinggagina kerak, boshqa odamga sira ham kerak emas. Modomiki, o'z siringni o'zing saqlay olmasang, boshqa kishi o'ziga mutlaqo kerak bo'lмаган бу сирни qanday saqlay oladi?

\* \* \*

Hayotda ham tashqi ko'rinishi xuddi gul, lola kabi go'zal suvratli kishilar ko'p. Ammo ularning ichlari yomonlik oloviga to'ladir.

\* \* \*

So'rasalarkim:

– Nomunosib do'stdan qanday qutulmoq mumkin?

Javob buldirkim:

– Ziyoratiga bormaslik va biron narsa so'ramaslik bilan.

So'rasalarkim:

– Jondan ham shirinroq narsa nima?

Javob buldirkim:

– Beg'araz do'st suhbat.

So'rasalarkim:

– Kimlar bilan do'stlashmoq mumkin?

Javob buldirkim:

– 1. Qanoatli kishilar. 2. O'z so'zidan qaytmaydiganlar.

3. Olim va hunar sohiblarini qadrlaydiganlar. 4. Xiyonat va nomardlikdan nafrat etadiganlar. 5. Yaxshi xulqli nazokatli kishilar. 6. G'azab vaqtida o'zini qo'lga oladigan kishilar.

7. Saxiyalar. 8. Badaxloq odamlarning ayshu ishrat majlislaridan nafratlanuvchilar bilan do'st bo'lgan kishining yo'li saodat yo'lidir.

\* \* \*

Do'st visoli – Allohning jamolini ko'rish baxtidir. Alloh jamolini bandalariga faqat jannatdagina ko'rsatadi. Do'stlik burchini yaxshi ado etishimiz barobarinda barchalarimizga Do'st visolini ko'rish nasib etsin.

## BAXT

Bu dunyoda hamma narsa bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Bu bog'liqlikni ba'zan ko'ramiz, ba'zan eshitamiz, ba'zan esa sezamiz. Ba'zan esa tasavvurimizga sig'dirolmaymiz yoki befarq qaraymiz. Shulardan biri – "Baxtliman!" deymiz-u, yolg'iz o'zimiz baxtli bo'la olmasligimizni anglab yetmaydigan paytlar ham bo'ladi. "Naqadar baxtsizman!" deb nola qilamiz-u, baxtsizligimizga boshqalarning ham sherik ekanini o'ylab ko'rmaymiz.

\* \* \*

Inson baxtiyor bo'lish uchun yaralgan. Kishi dunyoda boy bo'lish uchun emas, balki baxtli bo'lish uchun yashaydi. Zotan, qush parvoz uchun, inson esa baxtiyor bo'lish uchun yaralgandir.

\* \* \*

"Kishi dunyoda boy bo'lish uchun emas, baxtli bo'lish uchun yashaydi", degan fikrga ko'ra, baxtni moddiy boylikdan emas, ruh boyligidan izlagan afzal.

\* \* \*

Kimki "pulni – baxt, baxtni esa – pul", deb o'ylayotgan bo'lsa, yanglish hayot kechirayotgan ekan.

\* \* \*

Odamlar o'zлari uchun kutilmaganda baxtli bo'ladilar. Saodat esa Allohning rahmatiga, marhamatiga yetishmoqligidir. Saodatga pul topib olgan kabi yetishilmaydi. Go'zal xulq va solih amallar saodat saroyining kalitidir.

\* \* \*

"Baxt – kurashdan iboratdir".

\* \* \*

Baxt – faqat boylikda, deb hisoblovchi kimsada, albatta, kibr mavjud, xiyonat, riyо ... mavjud. Bu yomon xulqlar egasi o'zini baxtli sanashi, saodatga yetishmoqni orzu qilishi g'oyat kulgili, hatto achinarli emasmi?

\* \* \*

Hidoyatdan nari yo'llarda tentirayotgan birodarimizga befarq qarabmizmi, demak, uning baxtsizligiga sherik bo'libmiz.

\* \* \*

"Yon-atrofimdagilar baxtli bo'lmagunlaricha menga baxtiyorlik shohsupasi nasib etmagay", demoqlik esa donolikdir.

\* \* \*

Balki, birovning baxtsiz bo'lishini istasang, sen undan oldinroq baxtsizlik jariga qulaysan. Bu jarda umrbod qolib

ketmassan, bir kuni chiqarsan, ammo unutmaki, peshanangdag'i la'nat tamg'asi sira-sira o'chmaydi. Inson nima uchun azizu mukarram sanaladi? O'zgalarning baxtsizligini o'z baxtsizligi deb sanagani uchun emasmi?

\* \* \*

Odamning baxti orzu va tamalariga qarab bo'ladi. Eng tamagir odam – baxti eng oz odamdir.

\* \* \*

G'azzoliy hazratlari debdilarkim: "Bir kishining tijorati oxirat tijoratiga monelik qilsa, bunday kishi badbaxtdir. Bechoradir. Bu bir tandir uchun bir xum oltin bergan kabitidir".

\* \* \*

Bir obid yigit tabibdan so'rabdi:

– Tabib afandim, sizda gunohlarni yuvuvchi va qalblarning dardiga davo beruvchi dori bormi?

Tabib debdiki:

– Albatta, bor. Ammo bu dorini men emas, o'zingiz tayyorlappingiz kerak. Siz eng avval "faqirlik" va "tavozelik" daraxtlari ildizini siqib suvini olasiz. Bu suvga "tavba" halilasini qo'shasiz. So'ngra suvni "rizolik" hovonchasiga solasiz va "sabr-qanoat" gurzisi bilan ohista ezasiz. So'ngra uni "taqvo" qozoniga solib, ustiga "hayo" suvidan quyasiz. So'ngra qozonni "mehr-muhabbat" otashi bilan qizdirasiz va undagi narsani "tavba-shukr" qadahiga solasiz. Qadahni

“rajo – duo” shamoli bilan sovutganingizdan so‘ng ajoyib dori hosil bo‘ladi, uni “hamdu sano” qoshig‘i bilan ichgaysiz. Agar siz bu amaliyotni to‘liq bajarsangiz, albatta, bu dunyo va oxiratdagi barcha dardu balolardan forig‘ bo‘lib, ikki bunyo saodatiga yetasiz.

\* \* \*

Ulamolar derlarkim: “Allohning imtihoni bizni bilish uchun emas, bizni o‘zimizga bildirish uchundir”.

\* \* \*

– Ey baxt! Seni tutishning yo‘li bormi?

Ehtimol baxt xitobimizga javoban shunday der:

– Men kiyikka o‘xshayman. Hamma ham meni tuta olmaydi. Tutsa ham, uzoq ushlab turolmaydi. Meni qo‘lga kiritgan odam qattiq ushlasagina undan qocholmasligim mumkin. Ammo buning bir qator shartlari bor: eng avvalo, meni qo‘lga kirituvchi kishining qiligi o‘zgalar uchun yoqimli, ko‘ngli yumshoq, tili shirin bo‘lishi shart. O‘zini illatlardan ehtiyyot qilsin, g‘ururlanmasin, yovuz va yaramas ishlarga, xususan, hasadga, isrofgarchilikka, hiylayu aldonlarga yaqin turmasin. U kattalarga hurmatni, kichiklarga shirin so‘zni ravo bilsin. Gerdayib, kishilarni oyoqosti qilmasa, o‘zidan kichiklarga mensimay qaramasa, fe'l-atvorini to‘g‘rilikda tutsa yaxshi. Kimda-kim mana shularga rioya qilsa, men u bilan birga qolaman. Bo‘lmasa, kiyikdek qochib ketaman. Unda menga kim yeta oladi?

\* \* \*

Baxt-saodatni izlasangiz topa olmaysiz, quvsangiz tuta olmaysiz. Zimmangizdag'i insoniy vazifalarni ado eting – baxtning o'zi sizni izlab topadi. Insoniy vazifalarni ado etish uchun esa kuchli iroda talab etiladi. Ha, bizning baxtimiz o'z hayotimizni idora qiluvchi o'z irodamizga bog'liq. Shu bois baxtiyor bo'lishni istagan kimsa irodasini tarbiya qilishi shart.

\* \* \*

O'z xohish-istiklarining chegarasini bilmaslikdan ortiq baxtsizlik bo'lmaydi. Baxt kimgadir kulib boqquday bo'lsa, barcha orzu-istiklari aqlning bandasiga aylanadi. Baxt undan yuz o'girguday bo'lsa, aql uning orzu-istiklariga mute bo'lib qoladi. Inson hayotidagi eng ayanchli holatlardan biri aynan shudir.

\* \* \*

"Oh, baxtsizlik! U baxtning tayanchidir. Oh, baxtiyorlik! Unda baxtsizlik yashirin..."

\* \* \*

"Baxtiyorlik ichra sen baxtsizlikka uchrashdan qo'rqqin..."

\* \* \*

Buyuk orzuga yetishishni istagan ikki kishidan qaysi birida muruvvat ustun bo'lsa, orzuga o'shanisi yetishadi. Agar muruvvatda o'zaro tenglashsalar, irodasi kuchli bo'lganiga

orzuga yetishmoq baxti nasib etadi. Irodada ham barobarmilar? U holda yordamchilari va do'stлari ko'п bo'lgani yengib chiqadi. Agar bu jihatdan ham oralarida farq yo'q ekan, u vaqtda tolei (baxt iqboli) baland bo'lgani yetishadi.

\* \* \*

Hazrat Ali (r.a.) deganlar: "Bu besh narsa bo'lmasa edi, insonlarning barchasi yaxshi bo'lardi (mazkurni "baxtli bo'lardi", deb ham talqin qilishimiz mumkin): johillikka rozi bo'lish; dunyo hayotiga hirs bilan bog'lanish; ehtiyojdan ortiq molga xasislik qilish; amallarda va muomalada riyo qilish; faqat o'z fikr va qarashlarini to'g'ri deb bilish".

\* \* \*

Ibn Niyoz besh narsani baxt alomati deb hisoblaganlar: qalbdagi qat'iy ishonch; dildagi taqvo; dunyoning ichida turib undan yuz o'girish (ya'ni zuhd); ikki ko'zdagi hayo va badandagi qo'rqninch.

\* \* \*

Do'st va baxt egizakka o'xshaydi. Do'sti yo'q odam baxtsizdir. Do'stiga xiyonat qilgan odam esa badbaxtdir. Agar do'stlik samimiylari va xolis bo'lmasa, orada manfaat ko'ndalang yotgan bo'lsa, baxt ularning ikkovidan ham qochadi.

\* \* \*

Dushmanlarga muloyim muomala qilishda ikki yaxshilik bor: avvalo shirin muomala qilgan inson o'zining afzalligini

namoyish etadi va dushmanning g'azabini susaytiradi. Demak, zarba kuchli bo'lmaydi. Ikkinchidan, vaqt kelib bu dushmanga Alloh insof beradi va do'stlik maqomiga yetishadi.

\* \* \*

Muhtojlarga yordam qilgan insonni atrofdagi odamlar izzat qiladi, uning bu xayrli ishi Alloh buyurgan ishlardandir.

\* \* \*

Johillarga nasihat qilish, ularni to'g'ri yo'lga solish nihoyatda og'ir vazifa. Ammo bu vazifaning bajarilishida xayrli natijalar bor: johil ko'zi ochilgach, sizga do'st bo'ladi, xayrli ishlaringizda yoningizda turadi. Jamiyat uchun ham nafî tegadi.

\* \* \*

Valiy zot Tustariydan so'radilar:

– Badbaxtlik alomati qaysilar?

– Ilmli bo'la turib amal qilmaslik. Amal qila turib ixlosli bo'lmaslik. Alloh taoloning bergeniga rozi bo'lmasdan boshqa narsalar ortidan quvmoq. Haq taolo do'stlari suhbatiga qo'shilmaslik.

\* \* \*

Badbaxtlikning yana bir nishonasi bor: kishi o'zini baxtli his qiladi-yu, biron odamning baxtsizligidan lazzatlanadi.

Kimda shunday illat bor ekan, tavba qilsin-u, bu xastaligini davolash chorasi topsin. Chunki baxtsizlikka uchrash uning qismatida ham bor. Baxtsizlikka uchraganida birov dalda bermasa, aksincha kulsa, lazzatlansa, naqadar ayanchli holga tusharkin!

\* \* \*

“Baxtiyorlik – osoyishta qalbga ega bo’lish bilan vujudga keladi”.

\* \* \*

Qalb osoyishtaligi – Allohni tanish bilan vujudga keladi. Biz alhol “baxt” deb o’ylayotgan boylik, mansab, hatto oila quvonchi – barchasi o’tkinchidir. Allohni taniy olgan kishining baxtingina boqiyidir. Allohni tanish baxtiga yetgan odamning kelgusi ishlari uni saodatga yetaklaydi.

\* \* \*

Suqrot hakim: “O’qib-o’rganmay turib ham foyda va zararning farqiga yeta olaman, degan odamni tentak deb bilmox kerak”, deganlar.

\* \* \*

E, shoshqaloq inson, ilming bo’lmasa, sen uchun foyda ham, zarar ham birdir. Zero, sening zaif fikringcha, gunohlarning barchasi o’zingga xayrliday bo’lib ko’rinadi.

\* \* \*

Odam o'z insoniy qiyofasini asrashi uchun hikmat va ma'rifat libosini kiyishi shart.

\* \* \*

Ilmga intilgan kishi eng yaxshi insondir. Ilmdan yuz o'girish – insoniylikdan yuz o'girish, demak. Chunki ilm – insoniylik toji hisoblanadi. Inson ilm bilan sharaf topadi. Mol-mulk esa johilning g'ururlanadigan matohidir. Ilm odamni yuksaltirib, undan yodgorlik qoldiradi.

\* \* \*

"Jannatga kirish hayratlanarli muvaffaqiyat emas, ma'rifat – dunyoning o'zida jannatga erishish demakdir".

\* \* \*

O'quv-idrok qorong'i tundagi mash'alaga o'xshaydi. Bilim esa mash'aladan taralayotgan nurga qiyos. U kishini yoritadi, unga ro'shnolik beradi. Har qanday hurmat kishining o'quv-idrokidan keladi. O'quv-idroksiz kishi bir hovuch kepak bilan teng...

\* \* \*

Zakovat – o'zaro ont ichishib do'stlashgan kishilarga o'xshasa, bilim – yaqin qarindoshlarga o'xshaydi.

\* \* \*

Bilim – misoli bir jilov, u odamni barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Ilm egasi o‘z tilaklarini topadi, orzu-maqсадларига erishadi. Aql-idrok egalarining nafi har doim ko‘pchilikka tegib turadi. Bilimlilar elda aziz bo‘ladilar. Hurmat qozonadilar. Butun ishlar o‘quv-idrok bilan amalgalashadi. Barcha murakkab ishlar bilim bilan hal etiladi.

\* \* \*

Bilimsiz kishilar – donolarning dushmani. Bilimsiz doimo donolarga xorlik tilaydi. Bu ular ko‘nglining tub-tubiga cho‘kib yotgan hasad alomati. Ilmsiz odam so‘qirga o‘xshaydiki, uni kamshitib, chetga surib tashlash insofdan emas. Balki ko‘rko‘zni ochish uchun bilimdon ilm xazinasidan unga nur berishi lozim.

\* \* \*

Itning bo‘yniga tilla zanjir bog‘lansa-da, hamma joyda harom hisoblangani kabi, ilmsiz va saxovatsiz davlatmand ham kishilar nafratiga sazovor bo‘ladi.

\* \* \*

Har narsa ko‘paysa, qiymati tushadi. Ammo ilm va odob bundan mustasnodir.

\* \* \*

Kishi egallagan ilm yoki hunar hech mahal unga zarar keltirgan emas. “Bilimdonga balo yo‘q”, deb bejiz aytmagانلار.

\* \* \*

Deydilar:

- Farzandimni Sharqshunoslik institutida o‘qitmoqchiman.

So‘raysiz:

- Nечун?

Javob berarlarki:

- Xorij mamlakatlariga borib ishlasa, ko‘proq pul topib keladi.

Deydilar:

- Farzandimni huquqshunoslikka o‘qitmoqchiman.

So‘raysiz:

- Nечун?

Javob berarlarki:

- Bu sohada pul topib, boyimoq osondir.

Lekin demaslarki:

- Farzandimni Alloh roziligi uchun o‘qitgum, farzandim Alloh roziligi uchun ilm olsin, so‘ng ilmiga amal qilib, xalq xizmatini bajarsinu, elning duosiga yetishsin.

\* \* \*

“Ilm o‘rganmoq – e’tiqodni mustahkamamoq uchun, ammo boylik orttirish uchun emas. Saxovatsiz boy yog‘insiz bulutga o‘xshaydi. Ilmiga amal qilmagan olim kitob ortilgan eshakka o‘xshaydi...”

\* \* \*

Agar ilmni chin dil va ixlos bilan xolisanilloh egallasang, butun hayoting davrida og'iringni yengil qilib yuruvchi yo'ldoshing bo'ladi. Agar dunyo boyligiga yetishmoq maqsadida ilm olsang, egallagan ilming ilon bo'lib, tanangga chirmashadi va umr bo'yи seni azoblaydi.

\* \* \*

Rasululloh (s.a.v.) "Ilm istash har bir muslim va muslima uchun farzdir", deb marhamat qilganlar.

\* \* \*

Ilm egallahash insoniy burch, yuksak mas'uliyatdir. Ilm Allohnini tanish, o'zlikni anglash, dunyoni idrok etishning muhim vositasidir.

\* \* \*

"Bir soat ilm o'rghanish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro'zadan afzaldir".

\* \* \*

Ilm o'z sohibi bilan oxiratga qadar boradi. Boylik esa bu dunyoda qoladi, agar egasi uning hisobini berolmasa, jahannamga tushadi. Ilm insonning sharafini yuksaltiradi. Boylik insonni qo'riqlay olmaydi, aksincha, mol-dunyoni egasi qo'riqlaydi.

\* \* \*

Ilm – insoniylik gultojidir.

\* \* \*

“Ey, odam bolasi! Bilginki, salomatlik – birlikda, ixlos – taqvoda, xudojo‘ylik – tavbada, ibodat – ilmda va boylik – qanoatdadir”...

\* \* \*

Unutmaylikkim, hayotning chegarasi bor, ilmning esa chegarasi yo‘q.

\* \* \*

Rasululloh (s.a.v.) “Olimning bir kunlik ibodati obidning qirq yillik ibodatiga teng”, deb marhamat qilganlar.

\* \* \*

Buqrot hakim aytganidek: “Agar kishi o‘zi mukammal egallamagan bilimi haqida gapirmsa, odamlar orasida tushunmovchilik va tortishuv yuz bermaydi. Jangu jadal olovi so‘nadi”.

\* \* \*

Muftiy hazrat Mahmudxo‘ja Behbudiy millat kelajagi haqida qayg‘urib fikr yuritar ekanlar, “dunyo turmog‘i uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”, deb ta’kidlagan edilar.

\* \* \*

Suqrot hakim demishlarkim: “Faqat bir ezgulik bor – bilim va faqat bir yomonlik bor – jaholat”.

\* \* \*

“Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”.

\* \* \*

Iljni irfon (ma’rifat) holiga keltirmaganlar sahro kengliklarida qolish tahlikasi ichidadirlar. Allohnini tanish ilm orqali bo‘ladi.

\* \* \*

Bu dunyoda yashab, ilmgaga rag‘bat etmagan kishini hammomga kirib, yuvinmay chiqqan nodonga o‘xshatishadi.

\* \* \*

Quyoshning jamoli yer yuzini yoritganligi va hayotga davomiylilik bag‘ishlagani kabi, ilm ham qalblarni nur bilan yoritadi.

\* \* \*

Imom Ahmad ta’kid etganlariday: “Ilm – inson uchun non va tuzdek zarurdir”.

\* \* \*

Imom Rabboniy aytganlaridek: “Ilm – hamma muhtoj bo‘ladigan ozuqdir”.

\* \* \*

“Ilmning hammasi dunyodir. Oxirat esa, unga amal qilishdir. Ixlos bilan qilinganidan boshqa hamma amal behudadir”.

\* \* \*

Bilim daraxtining mevasi – odamlarga xayrixohlik va boshqalarни ranjitmaslikdir.

\* \* \*

Ilmlи bo'lib, unga amal qilmaganlar, bila turib tahlikali yo'ldan qaytmagan va yo'lda qaroqchilarga uchrab, bor-yo'g'idan ajragan odamlarga o'xshaydilar.

\* \* \*

Ilmga intilgan kishi eng yaxshi insondir. Ilmdan yuz o'girishni esa insoniylikdan yuz o'girish deb bilmoq kerak.

\* \* \*

Agar ilm topgani sayin kimsaning kibri o'la borsa, demak, u to'g'ri yo'lda. Quyosh zulmatni quvgani kabi, ilm nuri odamdagи botil ishonchlarni ketkazdimi, demak, uning qarshisida sharaf darvozalari ochilibdi. Botildan yuz o'girgan odam ilmni ilm dengizidan idishiga siqqanicha olaveradi. Hamma narsani yo'qdan bor qilganni anglagan va bilgan odam oqibatda eng katta ilmga erishgan bo'ladi. Sahroda adashgan sayyohga ko'kdagi yulduzlar, hayotda adashganlarga esa olimlar yo'l ko'rsatadilar.

\* \* \*

Ilmiga amal qiluvchi olim – olam nuridir. Insonlar shu nurga intiladilar. Tog'larga chiqqanda kishi rohatlangani kabi, ilmiga rag'bat qilgan aql egasi olimlarning yoniga borganda ajib bir huzur topadi. Ilmiga amal qilmagan – uyqusiragan odam kabidir. Agar ilm tilda qolaversa, qalb tirilmaydi.

\* \* \*

Imom G'azzoliy hazratlari ilmiga amal qilmagan olimni boshqalarni kiyintirgani holda o'zi yalang'och qolgan ignaga o'xshatganlar. Ilmiga amal qilmagan kishining johil va nodondan farqi yo'q, deyishadi. Chunki "ilm bilan amal – lafz va ma'nini jihatidan bir-biriga mulozim va muvofiqdir. Chunki ilmdan maqsad – amaldir.

\* \* \*

"Ilm o'qib, unga amal qilmagan – yerni haydab, unga urug' sepmagan yoki urug' sepib, hosildan bahra olmaganga o'xshaydi".

\* \* \*

"Olimlarning yomoni amirlarni ziyyarat qilgani, amirlarning yaxshisi olimlarni ziyyarat etganidir. Faqirning eshidigiga kelgan amir naqadar xush va amirning eshidigiga borgan faqir naqadar noxushdir".

\* \* \*

Arastu hakim shogirdi Iskandar Rumiyga: "Sharaf va obro'ying yana ham yuqorilashini istasang, ilmu hikmat o'rganishdan or-nomus qilma", degan ekan.

\* \* \*

Mirzo Bedil hazratlarining "Kimki hayot shamini ilm nuri bilan yoqsa, hayoti asrlar bo'yи so'nmaydi", degan hikmatlarini tarix ulug' allomalar hayoti misolida tasdiq etgan.

\* \* \*

Johilning "bilaman" degani, ko'rning "ko'raman" deyishiga o'xshaydi. O'zining ilmiga, martabasiga mag'rur bo'lib, kekkayib ketish johillikning bir xilidir. Haqiqatni inkor erish johillikdir.

\* \* \*

Bir ariqdagi toza suvni boshqa ariqdan oqib kelib, unga qo'shilgan kir suvlar bulg'agani kabi pokiza insonlarni ham johillar to'g'ri yo'lidan ozdirib, kirlatadilar.

\* \* \*

Johillik alomatlari yana nimalarda ko'rindi:

- O'z nafsga qul bo'lishlik;
- Huda-behuda so'zlayverishlik;
- Bekorga achchiqlanish;
- Ehsonni o'z joyida qilmaslik;

- Hammaga, ayniqsa, sinalmagan odamga ishonaverish;
- Do'stni dushmanidan farq qilmaslik;
- Sirini har kimga aytaverish;
- Aqlsiz, iymonsiz odamlarning gapiga quloq solish;
- Befoyda so'zlarni ko'p so'zlash va loyiq bo'limgan odamlarga (ayniqsa, nosha'riy ishlariga) yordamlashish.

\* \* \*

To'g'ri gapni tushunish oson emas. Ko'ngilga botmaydigan qilib tushuntirish esa yanada mashaqqatliroqdir.

\* \* \*

Biror johil odam so'zlayverib, olimni sukut ettirsa, taajjub qilmaslik lozim, chunki tosh gavharni sindira oladi. Johil kishi sukut bilan johilligini yashirsaydi, o'rtacha aqlli odam hisoblangan bo'lardi. Lekin johillik bilan sukut ikkisi bir odamda jam bo'lolmas ekan.

\* \* \*

Luqmoni hakimdan so'radilar:

- Hikmatli so'zlariningiz, odob-axloqqa doir va'z-nasihatlariningiz bilan ko'plarni yaxshi yo'lga soldingiz, nasihatlariningiz kor qilmay, o'zining yomon fe'l-atvorini tashlay olmagan kishi ham bormi?

Luqmoni hakim javob berdilar:

- Bor. U – johil, badfe'l odam. Uni shu yaramas xulqdan qaytarishga har qancha urinsam ham foydasiz bo'lib chiqdi, tuzatishdan ojiz bo'ldim.

\* \* \*

“Aqlli odamlarning dushmanligi johil odamning do'stligidan ko'ra yaxshiroqdir. Jaholat bashariyat fikri uchun qorong'u bir kecha va har turli razilliklarning onasidir”, deydilar.

\* \* \*

Jaholatni turli razilliklar onasi, dedik. Jaholatni suyumli farzandlaridan biri – mutaassiblik (fanatizm)dir. Mutaassiblik ilmsizlik bulog'idan suv ichadi. Qaerdaki aniq ilm bo'lmasa, u joyda farazlar hukm suradi, har o'n farazning to'qqiztasi esa xato bo'lishi mumkin. Mutaassiblik avvalo din kushandasidir, so'ngra esa, jamiyat jigaridagi qurtdir. Mutaassiblik faqat dinga xos tushuncha emas. Dunyoni tashvishga solib turgan futbol fanatlari, rok fanatlari kabi beboshliklar shular jumlasidandir.

\* \* \*

Jaholatning yana boshqa farzandlari ham barcha dirlarda tug'ilib turibdi. Barcha dirlarni yangidan-yangi paydo bo'layotgan turli oqimlar sillasini qurityapti. Dindagi har qanday oqim – jaholatdir. Chunki odamlarning turli oqim va guruhlarga bo'linib olib, nizoda yurishlarini Alloh taqiqlaydi. Alloh bandalarini ittifoqlikda umr kechirishlarini istaydi. Dinning asosiy vazifasi odamlarni Allohnинг panohi ostiga jamlash. Nizo, ziddiyatlar shayton panohida gullab-yashnaydi.

\* \* \*

Donishmand debdikim: "Aqling bilan qara, ko'z xoindir, qalbing bilan eshit, qulqoq yolg'onchidir!"

\* \* \*

Fikr aqlning ko'zgusidir.

\* \* \*

"Qozonga yaqin yursang – qorasi yuqadi", deganlari bejiz emas. Qulqlari haqiqatni tinglashdan, og'izlari haqiqatni so'zlashdan, qalblari haqiqatni sevishdan zavq ololmaydiganlardan qochmoq shart ekan. Chunki ularning ruhiyatidagi kasofat sog'lom qalbga cho'kib, kishini abadiy xastalikka duchor qilishi hech gap emas.

\* \* \*

– Ey ko'ngil! Sen ahli dillardan bo'l. Ahli dilning majlislari gul, suhbatlari muhabbatdir. Ularning amallari yaxshilikka yo'g'rilgan. Insoniylikning ulug' fazilatini faqat shundaylar yonidan topa olasan. Oqilga yo'ldosh bo'lish, ahmoqdan qo'chish insonni ikki dunyo saodatiga erishtirajagini hech qachon unutmasang bas.

\* \* \*

"Aql quvvatining mo'tadilligi tadbirning chiroyli, zehnning tiniq, fikr-o'ylarning to'g'ri va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi, amallarning nozik, nafis odatlarining maxfiy jihatlarini anglashni o'rgatadi, – deydilar hazrat Imom G'azzoliy.

\* \* \*

Aqlning haddan oshishi makr-hiyлага, firibgarligu ayyorlikka boshlaydi. Agar aql me'yordan past bo'lsa, befahmlik, xom g'ayrat, ahmoqlik va junun paydo qiladi.

\* \* \*

Insonni butun hayvonlardan yuqori qo'ygan, uni dunyoning butun sirlaridan voqif etgan to'rt narsa budir: hikmat, aql, qanoat va adolat. Ilm tahsil etmoq, savod chiqarmoq va har narsani atroflicha tushuna bilmoq – hikmatga; tadbir, sadr, nazokat, marhamat – aqlga; hayo, olivjanoblik, o'zini qo'lga olmoq va o'zining haq-huquqini bilmoq – qanoatga; to'g'rilik, va'daga vafo, ezgu ishlar qilmoq va yaxshi xosiyatli bo'lmoq – adolatga tegishlidir. Bu sifatlarning barisi bir odamda mujassam bo'lsa, dunyoda eng buyuk mavqye ham uni gangitib qo'ymaydi.

\* \* \*

Aql saxovat eshiklari va saodat xazinalarining kalitidir. Foni y dunyoning azob-uqubatlaridan xalos bo'lib, boqiy dunyoning noz-ne'matlariga yetishish aql va idrokka bog'liq. Insonga hamisha aqli hukmronlik qilishi kerak. Aqlini yo'qotgan kuni o'zini falokatga otgan bo'ladi. Aqsiz boshning azobini esa vujud tortadi.

\* \* \*

Iste'dod, aql-idrok ikki xildir: biri – tabiiy, onadan tug'ma bo'ladi; ikkinchisi – kasbiy, ya'ni tajriba vositasida erishiladi. Insonlarda bo'lgan tabiiy iste'dod yog'ochdag'i yonish

xususiyatiga o'xshaydi. Yog'ochga o't qo'yilmasa yonmaydi. Shunga o'xhash, tabiiy iste'dod va aql ham tajriba bo'lmasa, o'zini ko'rsata olmaydi. Olimlar tajriba inson aql-idrokini kamolga yetkazadi, deganlar.

\* \* \*

Aql ma'naviyat bilan yo'g'rilsagina o'z qadrini biladi va hiylalardan o'zini himoya qila oladi. Aks holda nafsning tuzog'iga tushib, uning orzulariga asirlik kishanlari bilan bog'lanib qoladi.

\* \* \*

Inson aqli turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- Nazokatli va muloyim muomalada;
- O'zining kim ekanligini bilib, shunga rioya qilishda;
- Odil shohlarga rioya qilib, ularning orzu-istikclarini amalga oshirishda;
- O'z sirlarini do'stga bildirish yoki bildirmaslikda, ya'ni aqlsizning siri bo'lmaydi, har narsasi tilida turadi;
- O'zining va boshqalarning sirini saqlashda;
- Shohlar saroyida ehtiyyot bo'lib, saroy ahliga shirin til bilan muomala qila bilishda;
- Tilini tiyib, ortiqcha so'zlamaslikda;
- Majlislarda jim o'tirishni odat qilib, so'ralmagan narsalarni aytmaslik va pushaymonlik keltiradigan so'zlarni tilga olishdan saqlanishda.

\* \* \*

“Aqlli inson yaxshilikni yomonlikdan ajrata oladigan odam emas. Haqiqiy aql sohibi ikkita yomon ishdan qaysi birining zarari ko‘proq ekanini bilgan odamdir”.

\* \* \*

Ikki ahmoq uchrashganida yaxshilik tug‘ilishini umid qilish – xo‘rozdan har kuni tuxum kutish bilan barobar. Boshqacharoq aystsak: ikki ahmoq uchrashuvidan yaxshilik hosil bo‘lishiga uchinchi ahmoqgina ishonishi mumkin.

\* \* \*

Kuch – aqlda. Aqlsiz bosh – bamisol shamsiz shamdon, dey-dilar. Inson jasadidagi aql daraxtga o‘xsharkan. Daraxt sog‘lom va serhosil bo‘lsa, undan samara umid qilish mumkin. Unga pajmurdalik va xazon yetsa, o‘tin qilib yoqishdan boshqa narsaga yaramaydi.

\* \* \*

– Ey ko‘ngil! Bilursankim, insonning boshida ko‘z, qulqoq, og‘iz, burun kabi qiymatli a‘zolar joylashgan. Lekin insoniylik mohiyati go‘zal ko‘z yoki bejirim qulqoq bilan emas, balki aqlu zakovat, ma‘naviyat va quvvai hofiza bilan yuzaga chiqadi. Bu esa miyadan o‘rin olgan bir javhar bo‘lib, Allohning insonga taqdim etgan eng buyuk ne’matidir... Miyadagi kichkina bir illat tufayli kishi telbaga aylanib, hayvonlar qilmagan ishlarni qiladi. Insoniyat hanuz bu sirning tagiga yetolgani yo‘q.

Hayotni yo'qdan bor qilgan Xoliqi Zuljalol hamma narsani go'zal intizom bilan yaratgan. Buning qadru qiymatini anglamagan kimsa nodondir. Alloh taoloning kuch-qudratini har bir odam aqli va qalbi bilan tanimog'i va belgilab bergen hududlaridan chetga chiqmasligi lozimligini bir nafas ham unutmaslik darkor!

\* \* \*

Insonlar aql bilan mumtozdirlar. Aql tufayli yaxshilik va yomonlikni idrok eta olamiz. Shuning uchun ixtiyorimizni xayrga sarf etish – aqlimiz qo'lidadir. Kishi molsizlikdan qashshoq bo'lsa-da, aqldan boy bo'lishga tinmay intilishi kerak. Chunki mol bilan boy bo'lgandan aqlan boy bo'lgan afzal. Aql bilan mol to'plasa bo'ladi, mol bilan aql to'plab bo'lmaydi.

\* \* \*

Aql – nafsning zindoni, hoyu havas esa oromgohi hisoblanadi. Hoyu havas turli xil ishtiyoq va orzularni nafs oldiga tuhfa qilib olib keladi. Ammo bu behuda havaslarni aql man qiladi. Demak, kishining nafsi hoyu havasga moyil, aqldan esa uzoqdir. Shuning uchun oqil inson nafs ko'yiga kirmay, aql sadosiga qulq soladi.

\* \* \*

Badan – nafs o'lkasi va shahridir. Qalb shu o'lkaning qoq markazi, qolgan a'zolar ularning xizmatkorlari, botiniy

quvvat esa, o'lkanning yorituvchi fonsi. Aql – uni to'g'ri yo'lga boshlovchi vazir. Istak va orzu xizmatkorlarning rizqini muvofiqlashtiruvchi vosita. Jahl va g'azab shu o'lkanning mirshablari. G'azab insonga to'g'ri yo'lni ko'rsatayotgandek tuyuladigan, aslida esa, yomonlik va tuzoq hozirlab qo'ygan quldir. U avval nasihat qilib turadi, keyin o'ldiradi. Qalbni oqko'ngil vaziriga qarshi qayraydi. Aqlning oldi qismidagi hayo qo'riqchi misoli. Aql o'tasida esa, fikrlash quvvati mavjud. Eslab qolish quvvati esa, aqlning orqa qismida joylashgan. Til tarjimon, bosh sezgi a'zolari esa uning josusi va xabarchilaridir. Ularning har biriga muayyan vazifa topshirilgan. Ko'z ranglar olamida, quloq ovozlar olamida, boshqa a'zolar ham tegishli vazifalarni bajarishadi. Ularning har biri o'ziga xos xabar manbai hisoblanadi. Ular o'zlar bilan narsani nafsga yetkazadigan eshikbon singaridirlar. Podshoh martabasidagi Qalb durust bo'lsa, qo'l ostidagilar ham durust, aksincha, betavfiq bo'lsa, qo'l ostidagilar ham shunday. Qalb, kin, g'azab, sabrsizlik, hirs, ortiqcha orzu va taqdirdan rozi bo'lmaslik kabi botiniy xastaliklardan forig' bo'lsagina najot topib, halovatga erishadi.

\* \* \*

Aql – Alloh bergen eng buyuk in'om. U bizni ehtiroslarimiz va nuqsonlarimizdan baland tutibgina qolmay, fazilatlarimiz, iste'dod va ezguliklarimizdan maqsadga muvofiq foydalanishda yordam beradi. Zero, aqli bo'lishning o'zi kifoya emas, muhimi – bor qalbni ishlata bilish kerak.

\* \* \*

Jasoratsiz aql – ayolga xos xislat. Aqlsiz jasorat esa, hayvonga xos xislat.

\* \* \*

Aql tengsiz ne'mat, ammo ustalik bilan foydalanishni talab etadi. Barchada aql bor, biroq aksariyat insonlarning aqli qisqa, zavolli, yarim-yapaloqdir.

\* \* \*

Aqlning tili hamisha fikringni izmida. Ahmoqda bo'lsa buning aksi. Aqlning tili – tafakkurning tilmochi, ahmoqning tili esa gap tashuvchi va g'iybatchidir.

\* \* \*

Ichkilik zaharli ilon kabitidir. Bir chaqsa – o'ldiradi. Yaxshilikka olib kelmaydi.

\* \* \*

Aqlning kuchiga ishonmaslik – aqlsizlik belgisi. Aql-idrokdan mahrum bo'lgan bosh suvsiz chashmaga, adabsiz, tarbiyasiz yigit esa egar-jabduqsiz otga, sharm-hayosiz juvon tuzsiz taomga, ilmiga amal qilmagan olim xushbo'y guli yo'q bo'stonga o'xshaydi.

\* \* \*

Komil aqlga ega bo'lgan kishi o'zini past martabadan yuqori martabaga ko'taradi. Ra'y – aqli kuchsiz bo'lgan kishi esa o'zini baland martabadan pastga tashlaydi.

\* \* \*

Suqrot hakim vafotidan avval shogirdlariga bunday nasihat qilibdi:

– Farog‘at, shodlik kech kelib, tez ketadi, qayg‘u-alam tez kelib, ancha uzoqqa cho‘ziladi. Har odamning iffat va parrhyezkorligi bo‘lmasa, har qancha ziyrak va dono ko‘rinsa ham, uning aqli kamolga yetishgan hisoblanmaydi. Shunga ko‘ra, oqil va komil iffatlari, tavfiqli bo‘lmog‘i shart. Qilgan yomonliklari, fisqu fujurlarini har yerda maqtab, gerdayib so‘zlab yurgan odamdan uzoqlashing. Komil, aqli odam buzuq xayollarni ko‘ngliga keltirmaydi, aql-hush quvvati bilan ularni rad etadi.

\* \* \*

Aql va hayo ajralmas do’st. Biri yo‘qolsa, ikkinchisini topib bo‘lmaydi. Dunyo dunyo bo‘lib yaralganidan beri hali komil aql egasining behayolik qilganini, yoki aksincha, behayo odamning komil aql egalari martabasida e’zozlanganini ko‘rgan emas.

\* \* \*

Luqmoni hakim debdilar:

– Ey o‘g‘il, odamlar gapga ustamonliklari bilan maqtansalar, sen sukuting bilan maqtan. Har narsaning dalili bor: aqlning dalili – fikr. Fikrning dalili – sukutdir.

\* \* \*

Aql egalari olimlar, fozillar va tadbirli hunarmandlarning suhbatlaridan ko'p-ko'p bahramand bo'ladi. Donishmandlar suhbatи mushk-anbar, demakdir.

\* \* \*

Aflatun hakim debdilar: "Badanning quvvati – ovqat, aqlning quvvati esa hikmatli so'zlar, donolik va donishmandlikdir. Agar aql shulardan mahrum bo'lib qolsa, ovqatsizlikdan badan halok bo'lgani kabi halok bo'ladi".

\* \* \*

"Hikmat" so'zining asl ma'nolaridan biri – donishmandlik, donolik. Yana bir ma'nosи – yashirin sabab, sir. Yana biri ilmi ma'rifat. Yana biri – tadbirdir.

\* \* \*

Donishmand – haqiqatga oshiq kishi. Shunga ko'ra, har bir haqiqattalab odam ma'lum darajada donishmanddir. Donolardan o'rganish va o'rgangan narsalarini boshqalarga o'rgatish xayrli amallardan hisoblanadi.

Shu fazilat egasi bo'lishga intilaylik.

\* \* \*

Donishmandlikning chegarasi mavjud, kaltabinlikning esa chegarasi yo'q.

\* \* \*

Haqiqat – Allohning mavjudligini tan olish. Tabiat Alloh yaratgan va Alloh belgilab qo'yan qonuniyatlar asosida yashovchi mo'jizalardan biridir.

\* \* \*

Agar ishning tashqi ko'rinishiga boqsangiz, aldanaverasiz. Narsalarning ichida nima borligiga diqqat qilsangiz, haqiqatni topib, bol kabi yeysizlar.

\* \* \*

Bu dunyoda g'avg'oning boshi kishilarning bir-birlarini yaxshi tushunmasliklaridan kelib chiqadi.

\* \* \*

Hech qaysi nodon nodonligini tan olmaydi. Holbuki, xatolarni tuzatmaslik – chinakam xatodir. Ba'zan ko'nglimizga yoqmagan odamni ham nodonlar toifasiga kiritib qo'yaqolamizki, bu asli o'zimizning nodonligimizni ko'rsatib qo'yadi.

\* \* \*

Nodon kishi o'zining nasl-nasabiga, olim kishi esa o'zining ilm va adabiga tayanadi.

\* \* \*

Nodon o'gitida xato bo'lishi muqarrar, dushman nasihatida aldov bo'lishi shubhasizdir.

\* \* \*

Payg'ambarimiz (s.a.v.): "Kimda ahmoqlik va nodonlik bo'lsa, hamisha uyatga qo'yadi. Alloh taolo latif va muloyimlikni sevadi", deb marhamat qilganlar.

\* \* \*

Daraxtni kessalar ildizidan bir shoxcha ko'karib, uning o'rnnini bosadi.

Tanadagi qilich va o'q yarasi bitib ketadi. Lekin, til yarasi hech vaqt tuzalmaydi. Qalbga sanchilgan so'z o'qini chiqarib bo'lmayda. Badan zahardan, qalb yomon so'zdan o'ladi.

Chunki so'z qilichi temir shamshirdan ham o'tkirroqdir.

\* \* \*

"Kimki ko'ngilni qattiq so'z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi", – degan edi hazrat Alisher Navoiy.

\* \* \*

So'z – tuya burniga o'xhash, unga jilov solsa bo'ladi. Yoxud u tuyaning bo'yni kabidir, yetovga yuraveradi. Demak, masala – uni qay tomon yetaklashda! Kishining ko'zi jonga rohat berguvchi bo'lmasa, so'zlamaslik kerak.

\* \* \*

So'zlar – o'zlikning ifodasi. Katta daraxtlar kichik urug'larda yashiringanidek, kishining asl ko'rinishi so'zlariga yashiringan bo'ladi.

\* \* \*

"Oldin o'yla, keyin so'yla", deydilar. Chunki o'ylamay aytilgan so'zlar qalblarni o'ldiradi. Osmondan qor ham, do'l ham, yomg'ir ham yog'adi. Bu yog'inlardan ekinzorlar yo yashnaydi yoki falokatga uchraydi. Inson og'zidan chiqqan so'zlar ham bamisoli qor, yomg'ir, do'l kabitdir. Ular kishilarga yo hayot bag'ishlaydi yo o'ldiradi. Ya'ni qor vaqtida yog'sa – hayot manbai, bevaqt yog'sa talafot.

\* \* \*

So'zlar misoli yerga sochilgan urug'. Agar og'izdan chiqquday bo'lsa, ularni bittalab terib olish mumkin emas. El-yurt eshitganidan keyin ularni pardalab bo'lmaydi. Shirin va ezgu so'zlar oqib turgan zilol suvga o'xshaydi. Zilol suv qaerga oqib borsa, u yerdan anvoysi chechaklar unib chiqadi.

\* \* \*

Kerak so'zning so'zlanmog'i shart. To'g'ri, ortiqcha aytilgan so'z kishi ko'ngliga maloldir. Ammo so'zlamaslik ham durust emas.

\* \* \*

Kamgaplik – donolik yo'lining boshlanishi.

\* \* \*

Kishi uchun juda kerakli bo'lgan ikki a'zo bor: biri – til; ikkinchisi, yurak. Til – so'z uchun, yurak esa shu so'zdan

lazzatlanish uchun berilgan. Shu tufayli to'g'ri, rost so'zni so'zlash uchun tilni tebratmoq, ya'ni harakatlantirmoq kerak. Egri, yaroqsiz so'zlarni tashqariga chiqargandan ko'ra, tilning harakatsiz qolgani ma'qul.

\* \* \*

Shayh Abu Bakr (r.a.) deganlarki: "Tuproq suvni tortib quritgani kabi, ko'p gapirish ham savoblarni quritadi".

\* \* \*

Eshitmoq – kishini boyitadi, ko'p gapirmoq sayozlatadi. Ko'p gapirgan ko'p yanglishadi. Ko'p yegan – ko'p yiqiladi.

\* \* \*

"Ko'p gapirgan, ko'p yeguvchi do'zax o'tiga oshiqib ketguvchi, – deb yozadi hazrat Adisher Navojy. – So'zlamoqqa berilgan, yemoqqa qul bo'lgan odam bilim sharofatidan mahrum bo'ladi.

\* \* \*

"Farzandlarim, eshitgan so'zlariningizni eng go'zalini yozib oling. Yozgan so'zlariningizni eng go'zalini yodlang. Yodlagan so'zlariningizni eng go'zalini so'zlang".

\* \* \*

"Nimani gapirganiningni, kimga gapirganiningni va qachon ganpirganiningni unutma!"

\* \* \*

“So‘z – haqiqatning soyasi va parchasidir, – demishlar mavlono Rumiy, – modomiki soya o‘ziga tortar ekan, u holda haqiqat yanada yaxshiroq jazb etadi. So‘z – bahonadir, bir insonni boshqa bir insonga tortgan narsa so‘z emas, balki ikkalovida mavjud bo‘lgan ruhiy birlikdan bir parchadir”.

\* \* \*

Bir so‘z aytnoqchi bo‘lsang, ma’nosini o‘ylab ko‘r. So‘zlamaydigan taqdirda zimmangda mas’uliyat qoladigan bo‘lgandagina so‘zla. Aks holda ovoz chiqarma”, – deb nasihat qilgan imom G‘azzoliy hazratlari.

\* \* \*

Sharafli hadiski: “Mo‘minning tilidan farishta so‘zlaydi. Kofirning tilidan shayton so‘zlaydi. Mo‘min Allohnинг suyuklisidir.

\* \* \*

“Xato qilmoqlik bordir, tuzatmaslik esa ordir”.

\* \* \*

Baqara surasida Alloh “Odamlarga yaxshi gaplar ayting”, deb buyuradi. Imom Hasan Basriy hazratlari bu oyatni “Yaxshi gap – amri ma’ruf, nahyoi munkar, hilmu avf, kechirim va shirin so‘zlardan iborat”, deb tafsir qiladi.

\* \* \*

Bir g'aribning ko'nglini shod qiladigan so'z aytish oltin xazina topishdan afzalroqdir.

\* \* \*

– Ey ko'ngil! Angla: umring bir kunchalik ham emas. Shunday ekan, o'n yillik rizqni saqlab nima qilasan? Senga tegishli rizq Alloh tomonidan yuboriladi. Sen o'zingga ajratilgan rizqni o'zinggina olasan. Boshqa odam ilib ketmaydi. Senga o'sha boshqa odam ilib ketganday tuyulib afsuslanasan. Afsuslanma, aslida ilib ketilgan narsa uning rizqi edi!

\* \* \*

Havodagi turnaga umid bog'lab, qo'ldagi chumchuqni chiqarib yuborish aqlsizlikdir.

\* \* \*

Qudsiy hadisda: "Ey odam farzandi, sabrli bo'l va o'zingni past tut, O'zim seni oliy darajaga ko'taraman", – deb marhamat qilingan.

\* \* \*

Dunyo g'ami – kelib-ketguvchi mehmon. Abadiy qoladi, deb ranjimaslik kerak. Ne'matga sabr bilan erishiladi, shoshqaloq va besabr ne'matdan mahrum qoladi.

\* \* \*

Dorixonadan xarid qilgan doringiz shifo beradimi-yo'qmi, bilmaysiz. Bu olgan doringiz bir dardingizga davo berib, ikkinchisini uyg'otishi ehtimoli ham bor. Ammo sabr dorisida bunday xatar yo'q.

\* \* \*

Sabrni moddiyat va ma'naviyat ustuni desak ham yanglishmaymiz. Uni asramay, yiqilishiga yo'l qo'yilsa, moddiyat ham, ma'naviyat ham yiqiladi.

\* \* \*

"Qanoat – ehtiyojsizlik negizi, izzat va sharaf tantanadir, – deb yozgan hazrat Alisher Navoiy. – Qanoatli kambag'al-davlatmanddir, uning shohu gadoga ishi tushmaydi.

\* \* \*

"Qanoat – bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi; u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shavkat hosilini beradi; u bir daraxtdirki, unda qaram bo'lmaslik va hurmat mevasi bordir..."

\* \* \*

"Qanoatli darveshning qattiq noni tamagir shohning nozne'mat to'la dasturxonidan yaxshiroqdir..."

\* \* \*

“Shoh udirki, olmaydi-yu beradi, gado uldirki, sochmaydi-yu teradi. Har kim qanoatga odatlangan bo’lsa, shohlik-gadolik tashvishini bilmaydi...”

\* \* \*

“Qanoat – xokisoriig’dirki, natijasi – yuksaklik; muhtojlikki, foydasi – ehtiyojsizlik. Qanoat – ekin, urug‘i – boylik; daraxt, mevasi – muhtojsizlik; maydir, achchiq, lekin nash‘asi shodlantiruvchi; yo‘ldir, qattiq, lekin borar manzili sevintiruvchidir”.

\* \* \*

Suqroti hakim: “Hoyu havasni tark aylab, qanoatni ixtiyor eting”, deb vasiyat qilganlar.

\* \* \*

Najot – qanoatda. Kimki qanoat qilmasa, yetisha olmaydigan narsasiga intilaversa, o‘zga kishi qo‘lidagi narsaga ochko‘zlik bilan qarayversa, quvonch olami unga begona bo‘ladi. Qanoati tufayli xursandchilik olamida yashovchi kimsaning hech kimga ehtiyoji ham tushmaydi.

\* \* \*

“Mo‘min kishi bir ichiga to‘lguncha yeydi, kofir yetti ichiga to‘lguncha yeydi”.

\* \* \*

"Har narsaning zangi bor. Ko'ngil zangi ko'p yomondir.  
Ko'p yeganga olti balo yopishadi:

- O'qigan namozining ta'sirini bilmaydi;
- xotirasi susayadi;
- berahm bo'ladi, binobarin, o'zi to'q bo'lgani sababli  
o'zgalarni ham to'q sanaydi;
- ibodatlarga dangasalik qiladi;
- shahvati ustun keladi;
- musulmonlar masjidga borayotganlarida u hojatga  
shoshiladi.

\* \* \*

Sabr bor yerda, ayriliq o'tidan kuyganlarga o'lishdan g'am  
yo'q; ishtiyoq egalariga hajr o'tida kuyishdan alam yo'q.

\* \* \*

Sabr – hajr shomidek qorong'u va uzun, ammo uning oxiri  
visol tongi; sabr – hajr yo'ldek qiyin va yiroq, ammo nihoyati –  
iqbol ka'basi.

\* \* \*

Kimki biror qiyinchilikda sabru chidam ko'rsatsa, baxt uning  
zaharini asalga, tikanini esa nafis gulga aylantiradi.

\* \* \*

Avliyolik – sabrdir,  
Sabr nafsga jabrdir.

*Sadriddin Salim Buxoriy*

\* \* \*

Sabrli odam hech mahal umidsiz bo'lmaydi. Nedinkim, odamning odamligi umid bilan. Umidsiz odam – bir qop et. Umid – parvozga shaylangan bir lochin. Umidsizlik esa, oyoqqa bog'langan tosh.

\* \* \*

Umid – iymon ustunlaridan biri, negaki, biron narsani Allohdan umid qildimki, demak, uning borligiga iymon keltirdik.

\* \* \*

Umidini yo'qotadigan odamning boshqa yo'qotadigan narsasi qolmaydi.

\* \* \*

Mavlono Rumiy: "Umid – ishonch yo'lining boshi", deganlar.

\* \* \*

Banda rahmoniy umid bilan shaytoniy orzuni ajratib olishi kerak. Rahmoniy umiddagi odam sabrli. Shaytoniy orzu-istak bilan yashovchi sabrsizdir.

\* \* \*

Umidsiz qalb – egasiz huvillab qolgan hovliga o‘xshaydi. Umidsiz yurak tars yorilib ketishi mumkin, deydilar, u yurakning yorilib ketmasligi uchun qalqondir.

\* \* \*

Shoshqaloqlik – pushaymonlikning onasi. Ikkalasi bir-biridan ayrilmaydi. Ishning yaxshisi – puxta qilinganidir.

\* \* \*

Odamning eng zo‘r dushmani – nafsidir. Kishi tirik ekan, nafsi bilan kurashda tirik bo‘lmasligi kerak. Nafs shunday g‘animki, manmanlik va qaysarlik uning shiori. Kibru havo uning doimiy hamrohidir.

\* \* \*

“Nafs zafar va sharafga erishish yo‘lidagi eng qiyin va og‘ir to‘siqdir.

\* \* \*

Sharafli hadis: “Mo‘min kishi besh yomonlik (yoki balo) o‘rtasidadir: mo‘min birodari unga hasad qiladi, munofiq uni yomon ko‘radi, kofir uni o‘ldirish payida bo‘ladi, nafs unga qarshi turadi, shayton uni yo‘ldan ozdiradi”.

\* \* \*

Dunyo, shayton va nafs. Zuhd bilan dunyodan ehtiyyot bo'linadi. Shaytonga qarshi bo'lib, yomonligidan saqlaniladi. Shahvatlarni tark etish bilan, nafsdan himoyalaniladi.

\* \* \*

"Nafsdan ham dahshatliroq yov – boylik", deyishadi. Bu fikr unchalik to'g'ri emas. Chunki boylik nafsning farzandi. Aslida, barcha illatlar nasfning bolasi. Ammo bora-bora yovuzlikda o'z onalaridan oshib ketish hollari ham uchraydi.

\* \* \*

Kim mard ekan, nafsi bo'ynini uzsin, yo'qsa, balolar domiga giriftor bo'lish rejasini tuzaversin.

\* \* \*

Haqiqiy karomat – nafs va shaytonni yengishdir.

\* \* \*

Nafsni tanish – o'z vujudi haqida tafakkur qila olishdir.

\* \* \*

"Mening sarmoyam umrimdan iborat. Chiqqan har bir nafasimning qaytib kelishi mumkin emas. Nafaslar sanoqli, kamayib boraveradi. Shunday ekan, kunini faqat tirikchilik qayg'usi bilan o'tkazishdan ham katta zarar bormi?"

\* \* \*

Badnafsdan yaxshilik kutish nodonlikdir.

\* \* \*

Nafsning oyog'ini mashaqqat va xiloflik ipi bilan kishanla, tilagan narsalarini aslo berma. Ul shumning boshidan riyozat tayog'ini olma. Hamisha shu tayoq bilan qiy Nayver. U nafsi ammorani qopag'on it kabi semirtirma. Nafsing semirib turib yuzingni yormasin. Qutlug' ruhingdan g'olib kelib, seni nobud qilmasin.

\* \* \*

Ruh – qushlar orasida bulbul kabi. Nafs esa o'z tabiatiga ko'ra qarg'a. Bulbul qarg'a va boyqushlar o'rtaida yashay olmaydi, ular bilan birga bo'lisdan iztirob chekadi.

\* \* \*

Ilmda o'zaro tortish kuchi qoidasi mavjud. Bu faqat jismlargacha emas, ruhga ham xosdir. Shunga ko'ra, nafsoniy hayot – fosiqlarni, ruhiy hayot – sodiq va solihlarni, kufr – kofirni, yo'l – yo'lga muhtoj bo'lgan yo'lovchini o'ziga jalb qiladi.

\* \* \*

Deyilmishki: "Necha obro'li, zo'r, dono, botir er, nafsin tiyolmay oxir bo'ldi yer".

\* \* \*

“Odam olamdagi yaxshiliklarni hech o‘zidan ayamaydi. Ammo bu yaxshiliklarni o‘zgalarga ravo ko‘rmaydi ham”.

\* \* \*

Ikkitoifaodamdan ehtiyoj bo‘lish tavsya qilinadi: biri – qilgan ishining natijalarini hisobga olmaydigan, yaxshi bilan yomonni farqlamaydiganlar. Ikkinchisi – ko‘zlarini boshqalarning moliga tikkan, quloqlarini fisqu fasod va g‘iybatlarga o‘rgatgan, vaqtini ayshu ishrat bilan o‘tkazadigan yomon nafsli odamlardir.

\* \* \*

Shifo turlari – kam ovqat, kamgaplik, g‘azabni tiyish, baxillikdan qochish, hatto qumursqaga ham ozor bermaslikdir.

\* \* \*

Dunyo yo‘lboshida yoqib qo‘yilgan olovga o‘xshaydi. Kimki undan keragicha olib, o‘z yo‘lini yoritishga sarf etsa, foyda ko‘radi. Kimki ko‘proq olishga intilsa, kuyib qolib, o‘ziga azob beradi.

\* \* \*

“Ey odam farzandlari, men sizlarning husnu suvratlaringga va mol dunyolaringga boqmasman. Balki dillaringga va qilgan amallaringga boqurman”, degan va’daga muvofiq Alloh taolo qalbimizga qaraganida uyalib qolmaymizmi?

\* \* \*

Abu Bakr Siddiq (r.a) aytdilar: "Yoshlikni pardoz bilan, sog'liqni faqat dori ichish bilan qo'lga kiritib bo'lmaniday, boylikka quruq orzu-havas bilan erishish mumkin emas. Buning ikki yo'li bor: tinimsiz g'ayrat va mehnat; g'irromlik yo'li". Islom ana shu g'irromlik yo'lida topilgan boylikni harom qilgan.

\* \* \*

"Dunyo hayoti bir tushdan iborat. Dunyoda mol-dunyo sohibi bo'lmoq, tushda xazina topib olishga o'xshaydi", – deydilar mavlono Rumiy.

\* \* \*

Dunyo ko'lankaga o'xshaydi: quvlasang oldingga tushib qochib ketaveradi. Qochsang, senga yopishadi, izingdan ergashib keladi. Kimda-kim unga ko'ngil berguday bo'lsa, hayoti zoe bo'ladi. Dunyo lazzatlarining eng keraklisi tinch-omon hayat kechirish.

\* \* \*

Dunyo sho'r suvg'a o'xshab, ichganing sayin tashnaligingni oshiraveradi. Boylik zahar aralashtirilgan bolga ham o'xshaydi.

\* \* \*

Oxiratni olish uchun dunyo molini sotish mumkin, dunyo moli deb oxiratni sotish johillikdir.

\* \* \*

Dunyo yasangan kelinchak kabidir.

\* \* \*

Inson dunyoga manmanlik uchun kelmaydi. U sevgi uchun, boshqalarning mehrini qozonish, maxluqotni yaxshi ko‘rish, yaratilgan narsalarga shafqat, muhabbat ko‘rsatish uchun keladi. Ko‘ngilga e’tibor qaratadi, odamlarning ko‘nglini ko‘tarishga, xayrli duosini olishga intiladi.

\* \* \*

Oxiratning mahri dunyo mollariga ko‘ngil qo‘ymaslik, aksincha, uni tark qilishdir.

\* \* \*

Sharafli hadiskim: “Dunyo sevgisi har xatoning boshidir. Bir narsani sevsang, u seni ko‘r va soqov qilib qo‘yadi”.

\* \* \*

Kishi boylik emas, haqiqat izlovchisi bo‘lsa, uni qaerda topsa, olishga intilsa, haqiqiy boylikka erishgan bo‘ladi.

\* \* \*

Pulning foydasi savdogarni quvontirganidek, obidning ibodati ham obidni sevintiradi. Pul sevgisiga mubtalo bo‘lganlardan bir narsa so‘ramaslik tavsiya etiladiki, ulardan nimadir so‘rash – quturgan it oldidan taomini olish kabidir.

\* \* \*

Xayoli hamisha pul bilan band bo'lgan odam pulning quli hisoblanadi. Odamzod orasidagi quldorlik yo'qolgan, ammo pul quldorligi mavjud va u qiyomatga qadar ham yo'qolmaydi, bu qullikdan nihoyatda ehtiyyot bo'lmoqlik joiz. Quldorlik zamonlarida saxiy boylar qullariga erk bergan. Biroq, pul quldorligida bunday marhamat yo'q.

\* \* \*

Buyuk faylasuf Sofokl: "Pul – insoniyat gardanidagi eng katta tavqi la'natdir", degan. Ajab! Ajab! Biz ana shu tavqi la'natni sevamiz-a!!! Kishini yuksaltiradigan puli, mansabi emas, balki iymoni va ilmidir.

\* \* \*

Moddiyat ahli pulga sevinadi. Iyomon va umid haqiqiy insonni sevintiradi. Moddiy o'lim – oxiratga qaytish. Iyomon ahli uchun esa o'lim yo'q.

\* \* \*

Dunyodagi yaralmish har bir narsa faqat buyumlar emas, hatto tuyg'ular ham ahamiyatli va ahamiyatsiz deb ikki turga bo'linadi. Allohg'a ishqni, ota-onas, oila, do'stlarga mahabbatni ahamiyatsiz deb hisoblagan kishi ahmoq deyiladi. Boylikka muhabbatni ahamiyatli degan kimsa yanada ahmoqroqdir.

\* \* \*

"Dunyo va oxirat ikki kundosh kabitidir. Birini naqadar xursand qilsang, ikkinchisini shu qadar ranjitgan bo'lasan".

\* \* \*

Kuchli kishining zaiflarga iltifoti unga ziynatdir.

\* \* \*

Boyning bir ko'zi hamisha faqirda bo'lishi va bir qo'lini faqirga berishi talab etiladi. Hikmatki: "Faqirdan yuz o'girgan boyning ko'zlarini xoin ko'zlar. Faqirdan qo'l tortgan boyning qo'llarini xoin qo'llardir".

\* \* \*

Agar qo'limizdagи tanganing bir tomoniga "Dunyoga berilganning do'stligiga ishonma", deb yozilsa, ikkinchi tomoniga "Boy bo'lganing uchun senga intiluvchilardan ehtiyoj bo'l", deb yozib qo'yish kerakmikin?

## SAODAT

Iymon gavhari insof va vijdon qo'rg'onlari bilan asraladi. Boshqacharoq ta'bir bilan aystsak, iymon bir daraxt bo'lsa, vijdon va insof uning jon tomirlaridandir. Insof va vijdon iymonning muazzam saroyi, qo'rg'onlaridir. Shunday ekan, bu uch tushuncha mustaqil ma'nolarni anglatgani holda, o'zaro zanjir halqalari kabi mustahkam birlashgandir. Iymonsiz odamda chin vijdon ham bo'lmaydi.

\* \* \*

"Qanday bo'lsang – shunday ko'rin, qanday ko'rinsang – shunday bo'l!" Mazkur shior har bir xonadon peshtoqiga yozib qo'yilgani ma'quldir.

\* \* \*

Mavlono Rumiy hazratlari yozganlarki: "Iymon nedir?" deya so'radim. U qalb qulog'iga egilib: "Iymon odobdan iboratdir", deya shivirladi.

Yana yozmish edilarki: "Mening bu baytim bayt emas, ma'no jahonidir. Latifam ham latifa emas, tarbiyadir. Qissalarim ham oddiy so'zlar yig'indisi emas, ta'limdir. Yashirin bo'lgan narsalarni izoh va idrok ettirish uchundir".

\* \* \*

Kishiga yaxshi xulq zarurligini, xulq aqlning tashqi surati ekanini hamma biladi. Lekin hamma uni izlamaydi, unga intilmaydi. Ulug'lik sarmoyasi nasl va nasab bilan emas, balki aql va yaxshi xulq bilan ekanligi birovlarga ma'lum, birovlar esa bila turib o'zini bilmaganga oladi.

\* \* \*

Shofe'iy hazratlari: "O'zini gunoh va badxulqlikdan saqlay olmagan kishiga ilm foyda bermaydi", deganlar.

\* \* \*

Xushxulq, kular yuzli, xushmuomalali odam andisha va farosat egasi bo'ladi. Shunday go'zal sifatlarga erishgan, lekin o'qimagan odam bilan suhbat qurish, yomon xulqli, qo'rs bir olim bilan hamsuhbat bo'lishdan yaxshiroqdir.

\* \* \*

Axloqsiz olim iymonsiz johilga o'xshaydi.

\* \* \*

Inson moddiy jihatdan emas, ma'naviy jihatdan mukarram bo'lgani uchun ruhining pokligi darajasida kamolga erishadi.

\* \* \*

Odamning tabiatи shunday: saodatga eltuvchi qadriyatlarni ularning aksi bilan qamrab oladi.

\* \* \*

Alisher Navoiy hazratlari yozganlarki: “Go‘zal ko‘ngilni ochadi, xunuk hayotni o‘ksitadi. Yaxshi xulqli – go‘zaldir va u jannat huridir; yomon tabiatli – xunukdir va u do‘zaxbop devdir”.

\* \* \*

“Xulq haqida to‘laqonli tasavvur hosil qilish uchun to‘rtta narsani nazardan qochirmaslik kerak, – deb ta‘kidlaydi G‘azzoliy hazratlari. – Birinchisi, yaxshi va yomon fe’l; ikkinchisi, yaxshi va yomon fe’lni qilishga qodirlik; uchinchisi, yaxshi va yomon fe’ldan xabardorlik; to‘rtinchisi, nafsning holati bo‘lib, nafs doimo yo yaxshilikka yoki yomonlikka moyil bo‘ladi. Bu ikki ishdan biriga erishish unga oson kechadi.

\* \* \*

Xulq hay’at (holat)dan iborat nafs shu holatdan kelib chiqqan holda “beradi” yo “qizg‘anadi”. Demak, xulq nafsning ichki holati va suratidan iborat.

\* \* \*

Botinda ham to‘rtta rukn borki, ularning go‘zalligisiz xulq go‘zal bo‘la olmaydi. Qachonki shu to‘rtta rukn o‘zaro mutanosib bo‘lsa, go‘zal xulq hosil bo‘ladi. Bular: ilm quvvati, g‘azab quvvati, shahvat quvvati va bu quvvatlar orasidagiadolat quvvati.

\* \* \*

Ilm quvvatining go'zal va manfaatli bo'lishi, so'zlarda to'g'ri va yolg'onning, e'tiqodda esa haq va botilning, fe'llarda chiroyli va xunukning orasini oson va yengil farqlash bilan belgilanadi. Ilm quvvati sog'lom, undan hikmat mevalari hosil bo'ladi. Hikmat esa go'zal axloqning boshidir.

\* \* \*

G'azab quvvatining go'zal holati, xoh u kuchaysin, xoh pasaysin, hikmat taqozo qiladigan darajada bo'lishidir.

Shuningdek, shahvat quvvati go'zal munosib shaklda, hikmat ishorati ostida, ya'ni shariat va aql ko'rsatmasi doirasida bo'lishi bilan belgilanadi.

Adolat quvvati shahvat va g'azabni shariat va aql ko'rsatmasi ostida ushlashdir. Nafs undan quvvat oladi. Hikmat taqozosiga ko'ra, shu quvvat g'azab va shahvatni bosib turadigina emas, balki boshqaradi ham.

\* \* \*

Aql – bamisoli yo'l ko'rsatuvchi nasihatgo'y. Adolat esa aql ko'rsatmasini bajaruvchi kuch. G'azab – bamisoli ovchi it. U nafs istagidagi hayajon bilan emas, balki bitta ishora bilan to'xtash darajasida tarbiyaga muhtoj. Shahvat esa bamisoli ovga miniladigan ot. U ba'zan tarbiya ko'rgan, yuvosh. Ba'zan esa asov va qaysar.

\* \* \*

Rasuli Akram nabiyyi muhtaram afandimiz: "Mezon tarozusiga qo'yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan

og'irrog'i yo'qtur. Mo'min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro'za tutib ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar", demishlar.

\* \* \*

Inson ishonchdan iborat. Ya'ni, ishonchi yaxshi bo'lsa, yaxshi ishlarga ishonsa – yaxshi inson; ishonchi yomon ekan, demak, yomon inson bo'ladi.

\* \* \*

Donolardan hikmatki, to'rt narsa hamma uchun kerak: salomatlik, go'zal xulq, rostgo'ylik va halol mehnat.

\* \* \*

Besh narsa aqli odam xislati: qo'ldan ketgan narsalarga achinmaslik, mehnatdan qochmaslik, mag'rur bo'lmaslik, qo'ldan kelmagan ishga kirishmaslik, xohlagan narsasi qo'liga kirmaganiga qayg'urmaslik.

\* \* \*

Olti narsa rohatda yashashga yordam beradi: ishchanlik, haqiqiy do'st, tarbiyali farzand, mehribon xotin, shirin, maqbul so'z va aqlu farosat.

\* \* \*

Sakkiz xislat olivjanob odamlarda topiladi: afv, tavoze, shafqat, qo'li ochiqlik, ochiq yuzli bo'lish, hayo, nomus va muruvvat, kichiklarga shafqat, qanoatli bo'lish, vafodorlik, iffat va adolat.

\* \* \*

Vahob ibn Munabbih dedilarki: "Yomon xulq chil-chil singan ko'zaga o'xshaydi. Uni yamab ham, loy holatiga qaytarib ham bo'lmaydi".

\* \* \*

Kishilardagi to'qqiz illatdan hamma nafrat qiladi: johillik, yalqovlik, hasad, takabburlik, xiyonat, tamagirlik, g'azab, ig'vogarlik va munofiqlik.

\* \* \*

Donishmanddan so'radilar:

– Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima-yu, eng yomoni nima?

Donishmand javob qaytardi:

– Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa go'zal axloqli, tarbiyali, sa'y-g'ayratli bo'lib, shu go'zal xislatlar bilan nom chiqarish. O'limdan ham battar yomon narsa esa axloqsizlik, tarbiyasizlik va yalqovlik bilan nom chiqarishdir.

Donishmanddan yana so'radilar:

– Odamlar xulqlari jihatidan necha turga bo'linadilar?

Donishmand dediki:

– To'rt toifaga. Birinchi toifadagilar bir ishni qilishga so'z beradilar va so'zlarining ustidan chiqadilar. Bu go'zal sifatli odamlar ishlarini ko'ngildagidek do'ndiradilar. Bu juvonmardlar xulqi. Uchinchi toifa og'izni ko'prtirib so'zlaydi, va'dalar beradi, ammo amalda bir ish ko'rsatmaydi. Bu munofiqlar shevasi va

hiylakorlar ishidir. To'rtinchi toifadagilar so'z ham bermaydilar va hech bir ish ham ko'rsatmaydilar. Bu xasis va pastkash odamlar xulqi.

– Yaxshi xulq odamga qanday foydalar yetkazadi?

Javob berildiki:

– Adabli, tarbiyali odam boshqalarga muhtoj bo'lmas. Balki boshqalar unga muhtoj bo'lurlar. Yaxshi xulqli odam birovdan koyish eshitmas. Hamma uni do'st tutar. Yomon xulqlidan hamma o'zini olib qochur. Yomon xulqdan qochgan kimsa bosib o'tgan masofasi qadar sog'lom bo'ladi.

\* \* \*

Yaxshilarni yonida o'tirmoq, mushk-anbar do'konida o'tirmoqqa o'xshaydi. Kishi bu do'konda hech narsa xarid qilmasa ham, doimo foyda oladi. Avvalo ko'ngli yoqimli hidlardan bahra olib, rohatlanadi. Badfe'l kimsalar bilan birga bo'lishni esa, temirchi do'konida o'tirmoqqa qiyos qilsa bo'ladi. Kim bu joyda o'tirsa, u albatta do'konning noxush hididan yoki otash uchqunlaridan zarar ko'radi.

\* \* \*

Go'zal xulq bahor shamoliga o'xshaydi, hayot beradi. Yomon xulq samum shamoliga o'xshab uylarni yiqitadi, insonlarni halok etadi.

\* \* \*

Qalb ko'zi bilan tomosha qilinsa, olam bir ibratlarko'rgazmasi kabidir. O'zining turli ko'rinishlari bilan bu dunyo imtihonga

to'la iymon darsxonasidir. Ilohiy tarbiya va iroda hokim bo'lgan bu olamda buni inkor qilganlar saodatdan mahrum bo'lgan hayot yetimlaridir.

\* \* \*

Ma'lumki, inson nuqsondan xoli emas. Ammo aqlli odam do'stidagi ba'zi kamchiliklarni shartta yuziga solmaydi. Balki munosib bir vaqtda, munosib bir tilda, tanho joyda aytadi va nasihat qiladi.

\* \* \*

Tarbiyaning bosh maqsadi bir-biriga mehr-oqibatli insonlarni voyaga yetkazishdir. Ota-onalar yana unutmasinlarki, bugun farzandlari tarbiyasiga e'tibor bermagan kishi oradan yillar o'tgach, uysiz, oilasiz qoladi.

\* \* \*

– Bilgin! Bola tarbiyasi eng og'ir ishlardandir. Farzand ota-onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda, har qanday naqsh va suratdan xoli gavhar. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o'rGANIB, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta bu savobga uning ota-onasi, muallimi va unga tarbiya bergen har bir kishi sherikdir.

\* \* \*

Abu Hamid G'azzoliy

Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo'riqlaydigan go'zal axloq va yaramas yo'ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik.

\* \* \*

Bola tarbiyasida otaning qat'iyati, so'zidan qaytmasligi muhim ahamiyatga ega. U o'zining bu tabiatini farzandiga doimo sezdirib turishi zarur. Ona ham o'z navbatida otaning aynan shu xususiyatini bolaning yodiga solib turish, shu tarzda farzandini yomonliklardan qaytarishi lozim.

\* \* \*

Inson shunday yashashi kerakki, o'lar vaqtida o'zi kulsinu, uning bu dunyoni tashlab ketishidan afsusda qolayotgan olam ko'z yoshlaridan bo'g'ilsin.

\* \* \*

Burch tuyg'usi hamda pushaymon bilan bog'liq vijdon ixtirobi odam bilan hayvon orasidagi muhim tafovut. Aql va vijdonni o'z huquqlaridan mahrum etib bo'lmaydi. Ularga yolg'onlash mumkin-u, ammo ularni aldash qiyin. Sof vijdon eng oliy hakamdir.

Aldamchilik, bezbetlik, nomussizlik jandasini kiygan kimsagina o'z vijdoni hukmidan qo'rqlaydi. Vijdon egasini o'ldirish mumkin, biroq yengib bo'lmaydi.

\* \* \*

Vijdonni donish ahli qalbni tirnaydigan tirnog'i o'tkir hayvonga o'xshatgan. Vijdon azobi baxtsizlikdan o'zga narsa emas. Vijdonning yaralanishiga odamning o'zi aybdor.

\* \* \*

Vijdon azobi qo'ldan ketgan fazilatlarning aks-sadosidir. O'z aybini unutish esa oriyatsizlikka olib keladi.

\* \* \*

Nemis faylasufi Immanuel Kant: "Dilimizda yashaydigan qonun "vijdon" deya ataladi. Vijdon aslida xatti-harakatlarimizning shu qonunga muvofiq kelishidir", deb yozgan edi.

\* \* \*

"Olamaro qonunlarning qonuni – vijdondir!" desak yang-lishmaymiz. Haqiqatu to'g'rilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi va uning vijdoniga hech kim hokim bo'la olmaydi.

\* \* \*

Vijdon – aqlning qon tomiri, uning urishi bizni doim yaxshi va yomondan voqif etib turadi. Vijdonli odam xavfdan xoli, xiyonat qilguvchi esa halokat botqog'ida yashaydi.

\* \* \*

Ha, vijdon – hakam. Ha, vijdon – bandani iymonsizlik jariga qulashidan asrab qoluvchi posbon. Vijdoniga teskari yurmaydigan odam hayotida o'z oldiga qo'ygan vazifalarga to'la erisha oladi. Odamlar tillayu javohir bezaklarga ixlos qo'yadilar, holbuki, eng bebahoh ziynat – sof vijdondir.

\* \* \*

Vijdonni ulug' va ajib bir qudrati bor: u avvalo gunohsiz bandani har qanday qo'rquvdan forig' etadi. Gunohkorni esa tasavvuridagi o'zi loyiq bo'lgan jazo oldida talvasaga solib turadi.

\* \* \*

Agar barcha yaxshi fazilatlarni bir fozil mamlakatga qiyos etsak, vijdon bu mamlakatning podshohi, insof va adolat esa uning "o'ng qo'l" va "chap qo'l" vaziridir.

\* \* \*

Kishi birovning qayg'usidan shodlandimi, bilingki, u vijdon egasi emas.

\* \* \*

Odam uchun yaxshi sifatlar ko'p, ammo ular ichida eng sharafli - insofdir.

\* \* \*

Inson uchun insofdan yaxshiroq sifat bo'lmaydi. Buni faqat ma'rifatsiz kishilar anglamaydi.

\* \* \*

Adolat majmuasiga kiruvchi sadoqat chin do'stlik bo'lib, bunda kishi o'ziga ravo ko'rganini o'zgaga ravo ko'rib, o'ziga ravo ko'rmaganini o'zgaga ham ravo ko'rmaydi, o'zini qanday ko'rsa, o'zgalarni ham shunday ko'radi.

\* \* \*

Vafo – kishining o‘z nav’iga, xususan, yaqinlariga mardona munosabatda bo‘lishidir.

\* \* \*

Xizmat – bir kishining o‘z vazifasini va burchini yaxshilab ado etishidir.

\* \* \*

Taslim – mavjud qonun-qoidalarni va ko‘pchilikka ma’qul bo‘lgan narsalarni o‘ziga yoqmasa ham mammuniyat ila qabul qilishdir.

\* \* \*

Tavakkul – har bir harakatning oxiri faqat o‘zimga yoki o‘zga ishonchli shaxslarga bog‘liq deb o‘ylamasdan, borliq qonunlariga ham bog‘liqligini hisobga olib ish ko‘rishdir.

\* \* \*

Adolat tantanasi uchun kurashdan qo‘rqib, murosasozlik kayfiyati bilan yashash ham uyat, ham jinoyat hisoblanadi.

\* \* \*

Hayo dilni ravshan qiladirgan bir nurdirki, inson har vaqt shu ma’naviy nuring ziyoysiga muhtoj. Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir. Hayo pardasi ila o‘ralmish insonlarning iffat pardasi yirtilmas.

Bu chodir shunday muborakdirki, ancha-muncha xatolarni berkitib yo'q qilur. Agar durga sadaf pardayu libos bo'lmasa edi, suvga qo'shilib yo'q bo'lib ketmasmidi?

\* \* \*

"Iffat" atamasining ma'nosi bir oz kengroq. Ahli donishning bayoniga ko'ra, iffat – poklik va ma'sumlikni anglatadi. U komil inson uchun talab etiluvchi to'rt fazilatning uchinchisidir, ya'ni hikmat, shijlat, iffat,adolat. "Iffat" deyilganda shahvat, ya'ni lazzat va manfaatga bo'lgan intilishni aqlga bo'ysundirilgan deb tushuniladi va u yetti narsani o'z ichiga oladi.

1. Hayo – uyat va yengiltaklik hisoblangan ishlardan tiyilish.
2. Husn – ibtido, yaxshi xislatlarni egallash va imkonni boricha o'z yaqinlarining og'irini yengil qilishga harakat qilish.
3. Sabr – nafsoniy quvvatlarni jilovlash.
4. Qanoat – yeb-ichmak va kiyinmakning boriga rozi bo'lib, imkon va zarurat darajasidan ortig'ini talab qilmaslik.
5. Viqor – talab qilingan narsalarga erishishga bo'lgan ishonch va bu yo'lga shoshima shosharlik qilmaslik hamda vazminlik, ulug'vorlik, matonat. "Viqor sha'min o'chir" deyilganda mag'rurlikni yemirmoq nazarda tutiladi.
6. Xayriyat – maishatni halol kechirish, molni yaxshilik bilan topib, yaxshilikka sarf qilish, ezgulik, demak.

7. Saxovat – achinmasdan, qizg'anmasdan, haddan oshmasdan, molni kerakli o'rinlarda o'ziga, yaqinlariga va muhtojlarga sarf qilish malakasi.

\* \* \*

Imom G'azzoliy yozadi: "Kim iffat bilan xulqlansa, saxovatli, hayoli, sabrli, kechirimli, qanoatli, parhyezkor, latif, zarif, barchaga ko'makchi, betama bo'ladi. Agar iffat me'yoridan oshsa yoki kam bo'lsa, hirs va ochko'zlik, qo'pollik va behayolik, isrofgarchilik va xasislik, riyokorlik va sharmsizlik, hasad, ichiqoralik, boylarga yaldoqlanib, kambag'alni kamsitish kabi illatlar yuzaga chiqadi".

\* \* \*

Uyatdan qizarish – yaxshilik libosi hisoblanadi. Chunki odamning ma'naviy kamolotda qay pog'onaga ko'tarilganini nimadan uyalishi va uyalmasligidek aniq ko'rsatib beradigan narsa yo'q.

\* \* \*

Sadoqat adolatga xos xislatlardan bo'lib, chin do'stlik, demakdir. Ya'ni kishi o'ziga rovo ko'rganini o'zgaga ravo ko'rib, o'ziga ravo ko'rmanini o'zgaga ham ravo ko'rmaydi.

\* \* \*

Vafo kishining o'z nav'iga, xususan yaqinlariga mardona munosabatda bo'lishi. Uni biz ko'proq er-xotin orasidagi ishqiy

munosabatga nisbatan qo'llashga o'rganib qolganmiz. Holbuki, bu atamaning qamrovi kengroq. Vafo qaysi munosabatda bo'lmasin, ahdda, va'dada turish, demak.

\* \* \*

Vafo shunday bir pokiza ko'ngilli mahbubaki, u tabiat va ko'ngli pok bo'lмаган kimsaga rom, ulfat bo'lmaydi; vafo shunday bir pok zot, matlubaki, u zoti toza, tabiat pok bo'lмаган odamga yaqinlashmaydi, unga rag'bat ko'rsatmaydi. Vafo shunday asl gavharki, u insoniyat tojiga ziynatdir.

\* \* \*

Vafo hayo bilan payvasta, hayo ham vafo bilan bog'liqdir.

\* \* \*

Karam va muruvvat ota-onadir; vafo bilan hayo esa bularning ikki egiz farzandi. U ikkovidha qancha ravshanlik va soflik bo'lsa, bu ikkovidha ham shunchalik jipsligu birlik bor. Har bir yurakda vafo bo'lsa, u yerda hayo ham bor va har maskanda u topilsa, bu ham barqaror. Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q. Agar kimda bu ikki sifat bo'lmasa, unda iymon ham yo'q. Kimda iymon bo'lmasa, unda odamiylik yo'q...

\* \* \*

Vaqti kelganda ba'zi narsalar uchun jonni fido qilish mumkin. Ammo nomusni hech narsaga fido qilib bo'lmaydi. Chunki nomus jondan ham qimmatli. Suvning sofligi unga

qiymat bergani kabi, insonning nomusi ham unga qadr keltiradi.

\* \* \*

Odobni nomusdan, nomusni odobdan ajratib bo'lmas. Basharti, unisi ham, bunisi ham nuray boshlasa yoki yemirilsa, ko'r kam oila binosi yiqiladi, qadrsizlanadi va endi nafratdan bo'lak hech bir tuyg'u uyg'onmaydi.

\* \* \*

Nomus inson qalbidagi butkul ehtiroslarning eng ko'r kami bo'l mish sevgining jonidir. Ha, eng asl go'zallik nomusda. Inson aqlining poydevori ham nomus. Nomus tuyg'usi tug'ma bo'ladi. Shu uchun xalqda "nomusingni bolaligingdan boshlab asra", degan hikmat bor.

\* \* \*

Nomusni o'ziga fan qilgan bandasini Alloh taolo qo'llaydi.

\* \* \*

To'g'rilik Muso alayhissalomning hassalari kabi. Egrilik esa sehrgarlarning sehriga o'xshaydi. To'g'rilik o'rtaga chiqishi bilan ularning hammasini yutadi. To'g'rining yordamiga chopgan Alloh taoloning yordamiga chopgan.

Har bir soxtalik iymonsizlikka yetaklaydi, har bir to'g'rilik iymondandir.

\* \* \*

To‘g‘rilik odamdagi barcha ishlarning tartib va maromda ketishini ta‘minlaydi. To‘g‘rilik izdan chiqdimi, demak, hamma ishlarning tartibi buziladi. Xoh katta va ulug‘ ishlar bo‘lsin, xoh kichkina va arzimas amallar bo‘lsin, agar diqqat ko‘zi bilan qaralsa, ularda to‘g‘rilik yo‘q ekan, hammasi xarob bo‘ladi. Barcha turdagи ishlarning bari to‘g‘rilik bilan bardam va ustuvordir.

\* \* \*

Hayotda odamning uzoq yashashi emas, to‘g‘ri yashamog‘i muhimroq. To‘g‘rilikka ishonmagan aqlning o‘tkir bo‘lganidan foyda yo‘q. Soatning ham yugurib ketishi emas, to‘g‘ri yurishi muhimroq.

\* \* \*

Ali ibn Abu Tolib (r.a.) to‘g‘ri odamni to‘rt toifaga ajratganlar: ilmiga amal qiluvchi olimlar; ta‘lim olishni yaxshi ko‘radiganlar; bilganini qizg‘anmaydiganlar; u dunyosini bu dunyosiga sotmaydigan faqirlar.

\* \* \*

“To‘g‘rilik ezgulikka, ezgulik esa jannatga olib boradi. Odam bolasi so‘z va amalda to‘g‘rilikni birinchi darajada tutishi sababli Alloh qoshida siddiqlar (to‘g‘rilar) sirasiga kiradi. Yolg‘on yomonlikka, yomonlik esa do‘zaxga olib keladi. Odam bolasi yolg‘on gapira-gapira Alloh qoshida kazzoblardan bo‘lib qoladi.

\* \* \*

Chin so'zni yolg'onga chulg'ama, chin gapira oladigan tilni yolg'onga bulg'ama. Yolg'onchi – kishi emas, yolg'on aytmoq – yaxshilar ishi emas. Yolg'on so'z aytuvchini bee'tibor qiladi. Chunki u gavharni oddiy toshdek xor qiladi. Kimki chin so'zni yolg'onga qotadi, bebahō durni najosatga otadi.

\* \* \*

Yer yuzini yolg'on bahonalar ummoni bosganga o'xshaydi. Go'daklikda odat tusiga kirgan bu illatdan ayrimlar qarilik yoshiga yetganlarida ham ayrilgilar kelmaydi.

\* \* \*

Taomlanish lozim bo'lsa, qozonga boshimizni tiqmaymiz, keragini suzib yeymiz. Gap ham shunday bo'lishi kerak. Unni yoki qumni elab ishlatganimiz kabi, tilimizdan uchayotgan so'zlarga ilashgan yolg'oni ushlab qolish uchun aql va tafakkur elagida elab olishimiz shart.

\* \* \*

To'g'rilik jannatdagi bir daraxtga o'xshatiladi. Kimda-kim yer yuziga yoyilgan bu to'g'rilik daraxti shoxlaridan birini mahkam tutsa, shox uni to'g'ri jannatga eltadi.

\* \* \*

Yolg'on – ildizi jahannamda joylashgan bir daraxt. Kim yolg'onchilik qilsa, qilgan yolg'oni uni do'zaxga eltadi.

\* \* \*

Ig'vogar misoli ko'mir, kuydirmasa ham kishini qora qiladi. Ig'vogarni boshqalardan ajratish qiyin emas, u birovlarning kulfatidan shodlanadi. Ig'veni kasb qilgan odam kishi tanasida yurib, faqat yara bor joyda to'xtaydigan pashshaga o'xshaydi.

\* \* \*

Kishining saqlanishi zarur bo'lgan chaqimchilik, tuhmat, g'iybat, hasad, ig'vo, fitna, hiyla bir oilaga mansub "qarindosh" illatlardan hisoblanadi.

\* \* \*

G'iybatning otasi – bekorchilik.

\* \* \*

Fe'li tor odam o'z sirini ham saqlay olmaydi. Shuning uchun hayotda keng fe'lli bo'lishga intilish kerak. Kishining siqilgan payti ko'p bo'ladi, shunaqa damda sirini birovga aytib yuborishdan tiyilishga kuch topa olsin. Sirini ochsa, keyin nadomat chekadi. Sir o'zida ekan, baxtlidir. Yoyilgach, baxti uchadi-ketadi: g'iybatlardan o'zini qutqara olmay qoladi. Sir o'zida ekan, unga hukmron. Yoyilgach, g'iybat kishini mag'lub qiladi va rohatini buzadi.

\* \* \*

"Hiyla – makr va aldov degani. Lekin uning "tadbir" degan ma'nosi ham bor.

\* \* \*

Donishmanddan so'raldi:

– Osmondan qattiqroq va og'irroq narsa bormi?

Javob berildi:

– Or-nomusli kishiga tuhmat qilmoq osmondan ham katta  
va og'ir.

\* \* \*

Bir so'z bilan buzilar shoh qal'asi,

Ingranib chiqadi go'dak nolasni.

O't balosi, suv balosi yomondir,

Undan yomon, bilgin, tuhmat balosi.

\* \* \*

Tuhmatdan dillarga berguvchi ozor,

Yovuz qilmishini qo'ymasa zinhor.

Sajdaga qanchalik boshin qo'ysa ham,

Yaratgan Egamning qahriga duchor.

\* \* \*

O'tmish donishmandlari orasida: "Bo'htonga eng yaxshi  
javob sukut bilan unga jirkanib qarashdir", deguvchilar ham  
bo'lishgan.

\* \* \*

Bo'hton – hasadchilarining o'ziga xos ichki qonunidir.

\* \* \*

Odatda mevaning sarasini qurt yeganidek, bo'hton ham yaxshi odamlarga yopishadi.

\* \* \*

Har qanday jinoyat ikki xil yo'l bilan: qasddan qilinadi va ehtiyyotsizlik tufayli yuz beradi. Tuhmat va bo'hton tasodifan yuz bermaydi. Ayrim hollarda kishi nodonligi tufayli tuhmat ko'chasiga kirib qolishi mumkin.

\* \* \*

Gumon, ikkilanish insonni chekintiradi, g'amga botiradi. Ilymon insonni olg'a yurishga undaydi, quvonch keltiradi. Yomon shubbadan qochgan kishi undan uzoqlashgani qadar manfaat topadi.

\* \* \*

G'iybatchining boshi uzra uch ofat buluti bor: g'iybatchining duosi, qilgan xayrli ishlari qabul qilinmaydi; g'iybatchining ustida gunohlar birlashadi.

\* \* \*

Har narsaning kiri bo'lganidek, tilning kiri g'aybat. G'iybat so'zлari birovga nisbatan bo'lgan hasad o'tidan paydo bo'ladi. Bu esa munofiq kishilar odatidir.

\* \* \*

Urush ikki tan o'rtasida olov,  
Chaqimchi, o'tin tashiguvchi, moxov.

\* \* \*

Hazrat Alisher Navoiydan hikmat: "U yerdan-bu yerga gap tashuvchilar elning gunohini o'z bo'yniga oluvchilardir. Chaqimchilik hatto chin so'z bo'lsa ham ko'ngilsizdir. Yolg'on bo'lsa yanada nafratlidir. So'z yetkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigini – do'zax o'tining tutantirig'i deb bil.

\* \* \*

Odam hamisha yashiradigan, yashirishga urimadiga illat – hasaddir.

Hasad – biror tanishining, hamkasbining yoki yaqin qarindoshining muvaffaqiyati, yutug'i uchun tutilgan aza.

\* \* \*

Hasad – shaytonning eng ishonchli quroli.

\* \* \*

Ne fojiaki, birov hasadga yuragining to'ridan joy berib qo'yadi. Ne baxtki, boshqa birovning vujudida pisib yotgan hasad erkin nafas ololmaydi – aql bo'g'ib turadi. Demak, aql ojizlansa, hasad kuchga kiradi.

\* \* \*

Hasad kishining go'daklik chog'ida tug'iladi. Agar kishi o'zidagi hasad o'tini o'chira olmasa, odamlar undan nariga qocha boshlaydi. Hasadgo'yligini yashirmaydigan odam xavfli emas, balki o'ta ustalik bilan yashiruvchi kimsa har bir jon uchun xatarlidir.

\* \* \*

Arastu hakim deganki: "Dunyoda hammadan ko'ra hasadchining yuki og'irdir. Chunki u bechora baxtli odamlarni ko'rolmay, hasad tufayli keladigan hamma qayg'u-alamlar yukini o'z ustiga ortib yuradi".

\* \* \*

Hasadni tark eta olgan kimsa tinchlani, rohatlanadi. Fozil Asmai bir yuz yigirma yoshga kirgan kishidan uzoq umr ko'rish sirini so'radi. Qariya aytdi: "Buning berkitadigan siri yo'q. Men umrim davomida hasad va kinchilikdan parhyez qildim".

\* \* \*

Hasadchi saxiy bo'la olmaydi, xasisning hasadsiz yashay olmasligi aniq.

\* \* \*

Hazrat Alisher Navoiy dedilarki: "Hasadchi – bemor, balki halokatli dardga giriftor. Bid'atchi o'z dinidan uzoqda, hasadchi o'z fe'lidan azobda".

\* \* \*

Kishi astoydil istasa, vujudida g'imirlayotgan hasadni yengishga o'zida ruhiy-ma'naviy kuch topa oladi. Buning uchun hushini olayotgan, hasadni uyg'otmoqchi bo'layotgan narsalardan o'zini baland qo'yishga harakat qilsa bas.

\* \* \*

Kim o'zgalarni qiyayotgan dardga mubtalo bo'lishni istasa, do'sti boshiga tushgan kulfatdan quvonaversin. Ha, o'zganining kulfatidan quvonish ham hasadning bir ko'rinishidir.

\* \* \*

Olimlar orasidagi hasad jamiyat uchun ofat. Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Olimning buzilishi – olamning buzilishi", deb marhamat qilganlar.

\* \* \*

"Uchta katta gunoh bor, – dedilar Nabiy muhtaram, – kimda shu gunohlardan bo'lmasa, boshqa gunohlarini Allah taolo xohlasa, kechirib yuboradi. Birinchisi, Allah taologa shirk keltirib o'lgan kishi; ikkinchisi, sehrgarlik bilan shug'ullangan va unga tobe bo'lgan kishi; uchinchisi, o'z birodariga gina va hasad qilgan kishi".

\* \* \*

"Hasad" so'zi bir illatni anglatgani bilan uning eshiklari ko'p. G'azzoliy hazratlari shulardan yettasini sanaganlar: kibr, o'ziga rom bo'lish, yaxshi ko'rgan narsalarini yo'qotishdan qo'rqish, martabaga muhabbat, tuban nafs va baxllik.

\* \* \*

Hasad uyg'otuvchi ashaddiy sabablardan biri adovat, ikkinchisi esa yaxshilikni ko'rolmaslikdir.

\* \* \*

Hayotni nurlantiruvchi fazilatlar, qora dudga ko'muvchi illatlarni farqlab olishimiz kerak.

\* \* \*

Payg'ambarimiz (s.a.v.) dan so'radilar:

– Qaysi amal eng yaxshi amaldir?

Javob berdilar:

– Tanigan va tanimagan odamingga taom va salom bermog'ing.

\* \* \*

Salom berish kishiga sog'liq, salomatlik tilashdir. Salom – sog'liqqa asos. U kishiga eminlik, omonlik beradi.

\* \* \*

Biz salomning ahvollar eshigini ochuvchi sehrli kalit ekanini unutmasligimiz shart.

\* \* \*

Abu Zarr G'iforiy (r.a.): "Taom tuz bilan mazali bo'lganidek, yaxshilik ham duo bilan shirin bo'ladi", deganlar.

\* \* \*

Xayrli duo – boshqalarga hamisha yaxshilikni ravo ko'rish. Kimningdir darddan forig' bo'lib, shifo topishini, kimningdir farzand ko'rib shodlanishini, yana kimningdir hojatlari ravo bo'lishini, safardagilarning yo'llari bexatar bo'lishini istash.

\* \* \*

U Duo xolis – g’araz va riyodan, tama va minnatdan xoli bo’lmog’i shart. Shuningdek, duo sha’riy bo’lishi ham kerak.

\* \* \*

Duoga shoshilmaslik lozim. Alloh taolo poklik holatida qilingan duoni albatta qabul etadi. Duoning ijobati o’sha soatda ko’ringani ham ko’p, bu dunyoda ko’rinmay, oxiratga qolgani ehtimol, undan ko’proqdir.

\* \* \*

Shayton alayhala’na hamisha sergak, iymon nuri bilan nurlanib turgan har qanday yurakka chang solishga, bu nurni so’ndirishga shay turibdi. Shu bois, bizning dastlabki iltijomiz – shaytonning yomonliklaridan, vasvasalaridan, hiylalaridan asramoqni Alloh taolodan so’rash.

\* \* \*

Ibn Abbos Rasululloh (s.a.v.) dan rivoyat qiladilarki: “Agar Allohdan so’rasangiz, kaftlaringizni ichini ochib so’ranglar, orqasi bilan so’ramanglar va kaftlaringizni yuzlaringizga surtinglar”. Kaftlarimizni ochib iltijo qilayotgan paytimizda Alloh taoloning rahmatlari yog’ilib turadi. Kaftimizga qo’ngan bu ilohiy rahmatlarni yuzimizga srtamiz...

\* \* \*

Duoyi bad uchun savob yo‘q. Alloh taolo yaratgan bandalarining bir-birlariga yaxshilik qilishlarini istaydi va shu

maqsaddagi xayrli duolar uchun ajr beradi. Yaxshi mukofotdan yuz o'girish esa nodonlikdir.

\* \* \*

Atirgulga muattar bo'y qanchalik zarur bo'lsa, odamga hazil-mutoyiba shunchalik zarur. Faqat nodonlargina kulmay yashaydilar, razillar kamdan-kam hollarda quvnoq bo'ladilar, degan donishmand haq gapni aytgan. Hatto ayrim donishmandlar: "Faqat quvnoqlikkina naqd oltin baxt, qolganining bari – nasiya qog'oz. Kulmay o'lgandan ko'ra, bebaxt bo'lsang ham kulgan yaxshi", deb hazilga g'oyat yuqori baho bergenlar.

\* \* \*

"Qobusnoma"dan hikmat: "Hazil ayb bo'lmasa ham, hazildan ehtiyyot bo'l. Hazil qilish mumkin, ammo yaramas so'z aytish yomon... hazilni mastlik chog'ida qilma, chunki yomonlik hazildan kelib chiqadi. Ey farzand, o'zingdan pastroq odam bilan hazillash, bo'lmasa hazillashma, chunki sening izzating ketmasin yoki tengdoshlaring bilan hazil qil, chunki javob bersalar ayb bo'lmaydi. Uyat so'zlarni aytma, haddan tashqari hazil qilma, chunki odamni xor va beqadr qiladi. Xalqqa nima desang shuni eshitasan, xalqqa nima qilsang shuni ko'rasan".

\* \* \*

Tabiati qo'polroq, hazilning nozik jihatlariga e'tiborsiz kishiga hazil qilib shirin javob olaman, degan odam qalampir ekib, shirin qulupnay hosilini kutayotgan nodon odam holiga tushsa birovdan o'pkalamasin.

\* \* \*

Odamning kimligini uning nimadan kulayotganiga qarab bilib olsa bo'ladi.

\* \* \*

Hazil agar odamning shaxsiyatiga tegsa, odobsizlikdir. Bundan yaxshilar or qiladi. Hazil-mutoyiba bir oz ko'ngilni xushlamoq uchun, shodlik va xursandchilik uchun bo'lsa, yoqimli. Agar hazilda qo'pol so'zlar bo'lmasa, undan hech kim xijolat va ozor chekmaydi. Beozor hazil zariflik, ammo undan o'tsa aqlsizlikdir.

\* \* \*

Hazil-mazaxga o'rgangan, og'izlaridan beandaza so'zlar chiqarishga odatlangan odamlar keyinroq shu fe'llaridan dakki yeydilar. "Hazilning tagi – zil", degan so'z bekorga aytilmagan. Hazilni ham tuz kabi me'yorida ishlatmoq zarur.

\* \* \*

Hazillashish odobini egallah oson emas. Lekin hazilni tushunish odobi ham mavjud. Afsuski, hazilni barcha bir xilda tushunavermaydi, hatto beozor kulgini malol oladi.

\* \* \*

Hikmat ahli hazildan qochishni haqiqatdan qochish kabi baholaganlar. Hatto hazilni tushunmaydigan odamni nodon hisoblab, gaplariga jinoyatchiga ishonmaganday ishonmaslikni tavsiya etganlar.

\* \* \*

Askiya barcha davrada aytilaverilmaydi. Lekin davra yo'qki, latifa aytilmasa. Eplagan ham aytadi, eplamagan ham. Davraga qaralmaydi, ma'noga e'tibor berilmaydi. Behayo va bema'ni latifalar kichik ulfatlar davrasidan "toshib" katta sahnalarga, hatto teleekranlarga chiqdi.

\* \* \*

Arastu hakim "istagan narsadan kulgili jahat qidiraverish odati ma'naviy qashshoqlik alomatidir", deb bekorga ogohlantirmagan. Ma'naviy qashshoqliknı minglab odamlar huzurida ko'z-ko'z qilaverish donolikdan bo'lmasa kerak...

\* \* \*

Ermak hazildan keyingi bosqich. Samimiyat chegarasidan chiqishda, ta'bir joiz bo'lsa, "ermak eshagi"ga miniladi. Eshak bo'lganda ham ajabtovur, bir doirada aylanaverib kishining asab tomirlarini bir-bir uzaveradi. So'ng bu "yag'ir" eshakda "kalaka" atalmish badbo'y ko'lmakka tushiladi. O'zgani kalaka qilg'uvchi nodonga bu ko'lmak zilol suv kabi tuyulib simiraveradi, rohatlanaveradi. Zaharlanishi mumkinligini o'ylamaydi.

\* \* \*

Hajv yo'nalishidagi asarlari bilan dunyoga tanilgan yevropalik Servantes bu haqda deydiki: "Sen odamlarga tanbeh berishing mumkin-u, ammo haqoratlashga, kalaka qilishga haqqing yo'q. Chunki ko'pchilikni kuldirgan bo'hton, garchi

u hatto bir kishiga choh sifatida mo'ljallangan taqdirda ham baribir nojo'ya va bema'nilikdir".

\* \* \*

Kalaka ko'pincha zehn yetishmasligining alomati, u chinakam hazil yetishmagan joyda paydo bo'ladi.

\* \* \*

"Kalaka" degan illat ko'lmagidan "mazax" balchig'iga o'tiladi-yu... Balchiqda eshakni ag'anaganini ko'rganmisiz? Birovni mazax qilayotgan odamni shu jonivorga o'xshatsak, bizni aybsitmang. Agar eshakning ongi bo'lganida edi, bizning bu o'xhatishimizdan u ham ranjirdi: kelib-kelib meni shunday odamga o'xhatdingmi, deb arazlardi. Na chora, o'zgalarni mazax qilishdan rohatlanuvchi nodon bundan qo'polroq o'xhatishga loyiq bo'lsa-da, bunaqasini topishga aqlimiz yetmadi.

\* \* \*

So'kish eshitiladigan joydan hayo qochadi. Hayo qochgan xonadondan fayz ketadi, baraka ko'tariladi. So'kish kuchli tomondan aytildi, demak, o'ziga yarasha kuch va martabaning qay darajada ekanini ko'rsatuvchi omildir. Jismoniy jihatdan kuchsiz odam mushaklari o'ynab turgan baquvvat odamni so'kmaydi, martabasi pastroq kishi xo'jayinini so'kib ko'rsinch? Xotin zulum haddan oshgan mahalda erni qarg'ab yuborishi mumkin, ammo so'kmaydi. So'kish behayo, mayparast ko'cha xotinlariga xos illat.

\* \* \*

Agar ota farzandiga "assalom"ni, "bismilloh"ni, "subhonolloh"ni o'rgatsa, bola shirin tilchalari bilan bu go'zal so'zlarni aytganida quvonsa, "kishilarni yomon iboralar bilan so'kuvchi va og'zini shunday so'kishga o'rgatgan bandani Alloh taolo yaxshi ko'rmaydi", degan sharafli hadisni murg'ak ongiga singdira olsa, uning xursandchiligi doimiy bo'ladi, umrining oxirigacha tatiydi.

\* \* \*

"Qobusnoma"dan hikmat: "Ittifoqo, biror kishi bilan urishsang, og'zingga kelgan buzuq so'z va haqoratlar bilan so'kma, shunday urishgilki, yarashmoqqa joy qolsin va birdaniga besharm, behayolik qilma, chunki bunday ish bezorilarning odatidir. Odatning yaxshirog'i tavozu'li, kibrsiz bo'lishdir".

\* \* \*

Yaxshi kishilar birovdan yomonlik ko'rsa ham, yaxshilikdan ayrimaydi. Umri yaxshilik qilish bilan o'tgan kishi vafot etsa ham, yaxshiligi yashayveradi. Insonlarning yetakchilari bo'lgan payg'ambarlarga boqaylik: doimo yaxshilik bilan insonlarga xizmat qildilar. Aslo yomonlik qilmadilar. Haqiqiy insoniylik shunda. Yomonlikka yomonlik bilan javob berish – haqqimizdan, yaxshilik bilan javob qaytarish esa insonligimizdan.

\* \* \*

Har bir odam o'z yaxshiliklaridan o'zi saroy qurishi kerak, buni "oxirat saroyi" deb atasak ham bo'ladi. Bu borada otasi qurib qo'ygan saroyda yashay olmaydi. Undagi qulaylik va imtiyozlardan foydalana olmaydi. Qiyomatda kimsaning "Otam namozxon edi, himmatli edi", degan da'vosiga qulq solinmaydi. "O'zing qanday yaxshiliklar qilgansan?" deb so'raladi.

\* \* \*

Bu dunyoda ham, u dunyoda ham odam bolasining boshiga saodat soyaboni bo'luvchi fazilat – yaxshilikdir. Bu soyabonni sotib olish mumkin emas. Boshqa odam ham yasab bera olmaydi. Har bir kishi uni o'z amallari bilan o'zi yasaydi. Saodat soyabonining hajmi va go'zalligi qilingan yaxshi amallarning darajasiga bog'liq.

\* \* \*

Odam kishilarga qilgan yaxshiligi qadar yaxshi oadamdir. Saodat va farog'atga yomonlik atalmish botqoqlik orqali yetaman, degan inson nodon va badbaxtdir.

\* \* \*

Hazrati shayx Sufyona Savriy dedilar: "Kimki ixlos bilan bir amalni qilsa-yu, keyin o'sha amalga maqtanib "men falon ishni qildim", desa, qabul bo'lgan o'sha amali yaxshilik ro'yxatidan o'chirilib, riyo ro'yxatiga yozilur".

\* \* \*

Yaxshi ish yaxshi so'zdan afzal, ya'ni har kimning so'zi yaxshi bo'lsa-yu, ishi yomon bo'lsa foydasiz shamol kabitidir.

\* \* \*

Insonning necha yoshga kirgani uning kechirgan oylari, yillari bilan emas, qilgan yaxshiliklari bilan o'lchanadi. Odamning qilgan xayrli, foydalishlarini maqtab o'tirishdan ko'ra, ular kabi yaxshiliklar qilish afzaldir.

\* \* \*

Birovga xolis yaxshilik qildingmi, undan hatto minnatdorlik ham kutma. Shunda xolis bo'lsan. Alloh taoloning g'azabidan qo'rqqan kishining qo'lidan har qanday yaxshilik, qo'rqmaganidan har qanday yomonlik keladi.

\* \* \*

Yaxshilik qiluvchilarning ikki turi mavjud: biri – tug'ilganidan boshlab yaxshi tarbiya olgani sababli, umrining oxirigacha ezgulik yo'lidan og'ishmaydi. Faqat to'g'rilik yo'lini ado etaverGANLARI sababli, ularni tarbiya qilgan ota-onalari hamda ustozlari olqishlanadi. Ikkinci guruh o'z qarashlarida sobit turolmaydi, yomon va yaramas kishilar orasiga tushib qolsa, o'zları tanlagan yo'ldan chiqishlari, xato va adashishlar sari ketishlari ham hech gap emas.

\* \* \*

Odamlar foniy dunyoda yo yaxshi kishilarga yoki yomonlarga tobe bo'ladilar. Shu surat bilan yaxshilar yoki yomonlar daftariga yozildilar.

\* \* \*

Donish ahlidan hikmat: "Kimning qalbi yaxshilikka intilmasa, u onasining yoshligini o'g'irlab, dunyoga behuda kelibdi".

\* \* \*

"Ikki xil odamning boshi g'AMDAN chiqmaydi: biri – hayotini yomon ishlarga sarf qiladigan, ikkinchisi, imkonni bo'lsa ham yaxshilik qilmaydiganlar. Ularning hayotida xursandchilikdan ko'ra xafagarchilik ko'p".

\* \* \*

Alloh taolo insonni yaratib, yaxshilik yo'liga yurishga ham, yomonlik yo'liga yurishga ham ixtiyor berib qo'ydi. Qalb ko'zi ochiq kishi iymon yo'lidan yurib, har qanday zahmatga chidab, yaxshilik yo'lidan yursa, jannat ne'matlariga yetadi, qalb ko'zi yumuq, shayton yetaklagan inson esa yomonlik yo'liga yuradiyu, do'zax jarligiga qulaydi.

\* \* \*

Ajab, odam bolasi hamma narsani o'rgana oladi-yu, ammolayim kimsalarda nechundir yaxshilikni o'rganishga rag'bat

yetishmaydi. "Yaxshilardan o'rnak olgan kuning eng yaxshi inson bo'lasan", degan haqiqatni chetlab yuraveradi.

\* \* \*

Inson borki, yaxshilikka, yaxshi so'zga muhtoj. Birovning yaxshilisiz yashay olaman, deyishning o'zi kaltabinlik. Inson olishi va berishi mumkin bo'lgan yagona bebahosovg'a yaxshilikdir.\

\* \* \*

Hamonki, go'zal axloq kishining qimmatbaho kiyimi ekan, bu libosni yaxshilik amalisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Birovga yaxshilik qilmay yashayotgan kimsani juldur kiyimli bedavoga qiyoslash joiz.

\* \* \*

Kishi birovdan yaxshilik kutar ekan, unga o'zi avval yaxshilik qilishi kerak. Hayot bir mojoro, bu mojaroda yaxshilik yoki yomonlik nishonlariga mo'ljallanib o'q otiladi. Odam bolasi yaxshilik o'qi otilgan joyga nishon bo'lishga intilishi kerak.

\* \* \*

Hazrat Alisher Navoiydan hikmat: "Odamning yaxshisi – yomon narsalardan saqlanuvchi. Pok bo'lgay va haq so'zni aytishda hech narsadan qo'rwmagay. Xavfga tushmagay. O'zi pok, ko'zi pokni Inson desa bo'lur. Yaxshi odamdan yomonlar ham yomonlik kutmas. Yaxshi odam yomonlardan

ham yaxshilikni ayamas. Yaxshilik qila olmasang, yomonlik ham qilma. Yaxshilik qilishni bilmasang, yaxshilarga qo'shil. Yaxshilik atrofida aylana olmasang, yaxshilar atrofida aylan. Shum axloqsizlikka berilib, o'zingni yaxshilar safidan chiqarma va yomonlar orasiga qo'shma. Bu shum aqlga xilof bo'lsa ham, shayton yo'lida marg'ubdir".

\* \* \*

Birovni boshqalar oldida oqlash yoki qoralash uchun qilingan sa'y-harakat va gap-so'z shafoat hisoblanadi. Bir kishi garchand o'zi yaxshilik qila olmasa-da, yaxshilik qiluvchilar tarafida tursa, unga o'shalarning yaxshiligidan hosil bo'lувchi savobdan bir ulush tegadi.

\* \* \*

Abu Dardo birodarlariga xitoban dedilar: "Yodingizda bo'lsin, yaxshilik chirimaydi va yomonlik unutilmaydi. Yaxshilik – mol va davlatlaringizning ko'pligida emas, yaxshilik – keng fe'lli, axloqli bo'lish, ilm olish va Alloh taologa ibodat qilishda boshqalarga ibrat bo'lishdadir".

\* \* \*

Alloh taolo rozi bo'ladigan ishlar: ota-onaga yaxshilik qilish, vatanparvarlik, silai rahm, saxovat, yetimparvarlik... qilgani uchun shodlanish va shuning barobarinda Alloh taolo g'azablanadigan, norozi bo'ladigan ishlar: ota-onaga itoatsizlik, yolg'onchilik, o'g'irlilik, tuhmat, g'iybat, Payg'ambarimiz (s.a.v) nomlaridan

yolg'on gapistish... kabi yomon ishlardan o'zini to'xtata olmagani sababli qayg'uga tushish hamda o'kinish mo'minlik alomatidir. Chunki aybini bilgan, tushungan banda bundan bu yog'iga yomonlikdan saqlanishga, bunday gunohlarni takrorlamaslikka harakat qiladi.

\* \* \*

O'zi qilgan ezgu amallari bilan maqtanib, havolanish, o'zini Alloh taolo sevuvchi zotlardan deb hisoblab yoki ichida bo'lsa ham "Endi men yaxshi amallar qildim", degan xayol bilan yurish durust emas, balki odobsizlidir. Bundan sira-sira g'aflatda qolmaslik kerak.

\* \* \*

Kim yaxshi ish qilmayaptimi, demak, yaxshi narsalarni o'ylamay yurar ekan. Qalbida yaxshilik yashamaydigan odam insoniylik hissidan mahrum bo'ladi.

\* \* \*

Har bir yaxshilik – go'zal xulq, u iymondan keladi. Har qanday yomonlik yomon xulq, u kufrdan keladi.

\* \* \*

Yaxshilikni yomon xulqlarga qorishtirib yuborish yaxshi natija bermaydi. Shunday toifalar borki, ularning yaxshiliklari zoe ketadi. Bular kimlar?

- Birovga ehson qilgandan so'ng unga minnat qilganlar;
- Birovni kechirganidan so'ng unga aziyat bergenlar;
- Tuzalmas dangasa va yolg'onchi odamlarni tarbiyalamoqchi bo'lgan hukmdorlar;
- Qo'rsligi muloyimligidan, zulmi rahmatidan ustun bo'lgan rahbarlar;
- Nonko'r farzandlariga haddan tashqari umid bog'lagan mehribon onalar;
- Birovning haqqidan qo'rqlaydigan odamlarni mo'tabar hisoblab, ularga omonat bergen saxiy oliyjanoblar;
- O'rtoqlarining bema'nisuhbatlari bilan faxrlanadiganlar, to'g'ri va mo'min odamlarga ishonmaganlar.

Hayotda yana bir toifani uchratib turamiz: ular odamlardan yaxshilik ko'raverishlari natijasida birovning himmatiga muhtoj bo'lmasalar ham o'zlarini uchun "hamma menga yaxshilik qilishi kerak", degan qoidani yaratib oladilar. Yaxshilik qiluvchilarga "Nega menga yaxshilik qilmay qo'yding?" deb da'vo qilishdan ham toymaydilar. Bular tilanchi kabitdir. Ammo "Yaxshilikni tilab oladimi?" desangiz ranjiydarlar. Kimga yaxshilik qilishni bilish kerak. Eng avvalo muhtojlarga yaxshilik qilinsa ayni muddaodir.

\* \* \*

Donish ahli: "Birov senga sitam qilgan bo'lsa yoki sen birovga yaxshilik qilgan bo'sang, har ikkovini ham unut", deb tarbiya qiladi. "Qilgan yaxshilgingni unut", deb mo'minlar minnatdan ogohlantirilyaptilar.

\* \* \*

Jamiyatda hamisha yaxshilik hukm surishi uchun kishi yaxshilik qilishi, yomonlikni esa kechirishi shart. Uqubat yetkazishga qodir bo'la turib avf etish – olivjanoblikdir.

\* \* \*

Yaxshilikni bilmaslik – gunoh sari boshlovchi bir illat. Yaxshilikka yomonlik esa bir balodir.

\* \* \*

Hayotda ilon siyratli kishilarga yaxshilik qilinsa, ular faqat yaxshilik qilgan kishigagina emas, jamiyatga ozor yetkazadilar. Bunday kimsalar jamiyat uchun katta ofat.

\* \* \*

Yaxshilikni biladigan go'zal fe'lli kishilarga yaxshilik qilgan odam baxtli sanaladi. Lekin, afsuski, ilon fe'lli kishilarning peshanasiga "zolim" deb yozib qo'yilmagan. Kishi to yomonlik ko'rmagunicha ularning kimligini bilmay g'aflatda yashashi mumkin. Ana shunday yomonning fe'lini biladigan kimsa yaxshini ogohlantirib qo'ysa, foydadan xoli bo'lmaydi. Biroq avval aytganimizdek, yomonlardan butunlay yuz o'girish ham insofdanmas.

\* \* \*

Minnat – qilingan yaxshilikni yuziga gapirish, pesh va ta'na qilishdir.

\* \* \*

Nafs – ko'r, shayton esa bechora majruh. Ikkovi birlashganda insonni yo'ldan chiqaradi va ko'pdan-ko'p g'ariblarni yig'latishga qodir bo'ladi. Har qanday yomonlik shu ikki yovuz kuchning birlashishidan paydo bo'ladi. Har qanday yaxshilik esa shu ikki yovuz kuchni yo'q qilishdan hosil bo'ladi.

\* \* \*

Kunduz kechani ta'qib etgani kabi, yaxshilik yomonlikni ta'qib etadi. Yomonlik qilmaslik – yaxshilikning debochasidir.

\* \* \*

Foniy dunyoda odamlarga foydasi tekkan kishining boqiy dunyoda ham manfaati tegadi. Chunki bu dunyoda yaxshilik qilgani, ya'ni foydasi tekkani uchun Alloh taolo unga savob beradi. O'sha savobi tufayli gunohkor kishilarni shafoat qilinishiga yo'l ochiladi.

\* \* \*

Adovat va dushmanlik o'zaro ziddiyatni anglatuvchi ma'nodosh so'zlar. O'zgaga adovat va xusumat qilish "dushmanlik" deyiladi. So'zlashuvimizda "kin", "gina", "muxolif", "yov", "yovlashish" tarzida ham qo'llaymiz. "Raqib" va "raqobat"da ham qarama-qarshilik mavjud, lekin bu so'zlar ijobiyma'noni beradi. Ya'ni sportchilarni o'zaro raqib, tijoratdagi ayrim ishlarni raqobat, deymizki, bunda yomonlik urug'i yo'q. Ammo raqobat haddidan oshsa, dushmanlikka aylanadi. "Inson

bilan shayton orasida adovatdir va tabiiy muxolifat: biri o'tdan yaratildi va biri tufrog'din. Bu adovat oralaridadir ul chog'din: o't g'olib bo'lsa, tufrog'ni kul qilur va tufrog' g'olib bo'lsa, o'tni o'chirur" ("Mahbub ul-qulub" dan).

\* \* \*

Adovat va dushmanlikning bayrog'i ham, yopinchig'i ham, qalqoni ham iymonsizlik. Shu bois odam ko'ngli lavhida adovat naqshlari o'rin olmasligi choralarini ko'rishi kerak. Dilda saqlangan adovat temir zangiga o'xshaydi. Zang temirni yegani kabi, adovat haqni kemiradi, qalbni azob va iztirob bilan yemiradi.

\* \* \*

Dushman har qancha kichik bo'lsa ham, ko'ngilni notinch qiladi. Xas har qancha mayda bo'lsa ham ko'zga azob beradi. Dunyoda to'rt narsa borki, ularning kamini ham ko'p deb hisoblaydilar: 1. Olov – ozi ham, ko'pi ham kuydiradi, ozi birpasda ko'pga aylanadi. 2. Qarz – qarzini qistab keluvchi huzuridagi xijolatlik bir tanga uchun ham, ming tanga uchun ham bir xil. 3. Bemorlik – har qanday kishini behuzur va zaif qiladi. 4. Dushman – har qancha xor va zaif bo'lmasin, axir bir kun o'z ishini qiladi.

\* \* \*

Har dardning bir darmoni bor, suvning darmoni o't, zaharning darmoni taryok, g'amning darmoni sabr, ishqning

darmoni visol. Adovatni bosadigan dori esa yo'q. Agar butun daryolarning suvini sepsalar ham kin va g'azab otashini so'ndira olmaydi.

\* \* \*

Ichiqora do'st bilan yovuz dushman birlashsa, hasad bilan adovat qovushsa, odamni halok etadi.

\* \* \*

Ko'z og'rig'iga duchor bo'lgan odam quyoshga qarasa yo shamolga tutsa, ko'zdan ajralishi mumkin bo'lgani kabi, odam o'z dushmaniga yaqin kelsa, halok bo'ladi. Shu sababli dushmanidan qochmoq – tabiiy va qonuniydir.

\* \* \*

Iskandar Zulqarnayn sarkardalari bilan o'tirganida ulardan biri dediki:

– Ey, olampanohim! Siz ko'p uylaning, farzandlaringiz ko'paysin. Dunyoda sizdan anchagina yodgor qolsin.

Bu nasihatni eshitgan Iskandar Zulqarnayn kulimsirab javob qaytardi:

– Mening yodgor farzandlarim – hammaga qilgan yaxshi muomalam, yaxshi so'zlarim va go'zal xulq-atvorimdir. Bular tufayli xalq meni hurmat bilan tilga oladi. Nomimni doimo yaxshilik bilan yod etadi.

\* \* \*

Oltinni tahqirlash uchun axlatga tashlasalar-da, uning qiymati aslo pasaymaydi, oltin oltinligicha qolaveradi. Chang

osmonga chiqsa ham, uning qiymati hech qachon oshmaydi. U changligicha qolaveradi. Kibrlanib maqtanishdan lazzatlanganlar sharob ichgan sarxush kabi o'zlarini mahv etadilar. Inson yo ko'ringani kabi bo'ladi, yo bo'lgani kabi ko'rindi.

\* \* \*

Shuhratparastlik kishining o'zi loyiq bo'lмаган shon-shuhratga bevaqt urinishidan boshqa narsa emas.

\* \* \*

Hayot beshafqat. Shuhratni berishga beradi-yu, shirin tuyulgan bu damlar umrini uzoq qilmaydi.

\* \* \*

Shon, nom, dovruq ortiga tushganlar shayton yo'lida yuguradilar. "Sharaf qidirsang uni boylikdan izlama, iymondan qidir", degan hikmatni unutadilar. Shuhrat inson uchun eng katta nafsoniy orzudir.

\* \* \*

Shuhrat yuki og'ir bo'ladi. Ko'pchilik ko'tara olmaydi. Ko'tara olmasligining sababi, hayotning kuchini shuhratni qo'lga kiritish uchun sarflab ado qilib qo'yadi.

\* \* \*

Kamtarga nasib etgan shuhrat uning fazilatini yanada go'zallashtiradi. Shuhrat bunday odam ortidan xuddi soya kabi

ergashib yuradi. Agar shuhrat oldinga o'tib olsa-yu, kimsa uni quvlashga tushsa, oqibatda yo buzuqlik botqog'iga botadi, yo kibr to'riga o'ralib bo'g'iladi. Shu kimsani kecha e'zozlagan jamoa bugun la'natlaydi. U quvib yetgan, ega bo'ldim, degan shuhrat o'zidan avvalroq o'ladi. Shuhratga bo'yin bermagan, uning jilvalariga mahliyo bo'lмаган kishilar esa el nazdida tabarruk inson martabasiga ko'tariladilar. Oqibat shunday bo'ladiki, bu odamning o'zi vafot etadi, shuhrat esa yashab qolaveradi.

\* \* \*

O'zidan yaxshi nom qoldirish bilan shuhrat topishga intilish boshqa-boshqa narsa. Bularning birinchisi fazilat, ikkinchisi esa illat.

\* \* \*

Nafas oluvchi tirik jon borki, oxir-oqibat o'ladi. Odamning biri ozroq, ikkinchisi ko'proq yashaydi. So'ng baribir vafot etadi. Lekin podshohning ham, oddiy odamning ham vafotidan qoladigan narsasi – nomi bor.

\* \* \*

Ilm cho'qqilari haqida gap ketganda chinorning bargi emas, uning o'zi bo'lishga intilishi shartligini unutmasligimiz kerak.

\* \* \*

Hamonki osmonga uchishni niyat qilayotgan ekansiz, qo'nish mashaqqatini ham unutmang. Og'ir tosh yerdan

ming azob bilan ko'tarilib olinadi. Uni tashlab yuborish esa juda oson. O'sib, martabaga erishish xuddi tosh ko'tarishga o'xshaydi, martabadan tushish esa toshni tashlab yuborishdek bir holdir.

\* \* \*

Kamtarlik kishiga zebu ziynat. Kimki soddalikda, o'zini tuta bilishda, kishilarga hurmat va izzat ko'rsatishda, pokizalik va qanoat bobida yuksak axloqiylik ko'rsatsa, u odam kamtarindir. Bunday fazilatli kishilarga hamma ergashadi va ta'zim qiladi. Martabasi baland bo'lishini tilaganning yo'li bir – kamtarinlikdir. Barchani o'z himmatidan bahramand eta olishi shart. Bilsinki, urug' oldin tuproqqa aralashib, so'ng osmonga bo'y cho'zadi.

\* \* \*

Kimgaki Alloh taolo yaxshi nomni, shuhratni, shonu sharafni beribdi, shukr qilgan holda, bu ne'matni bir imtihon sifatida qabul qilsa adashmaydi. Bu imtihon dengizidan tavozu' (kamtarlik) kemasida suzib o'tib, murodga yetmoqlig mumkin.

\* \* \*

Hazrati shayx Usmon Xayriy ta'birlari bilan aytiganda, tavozuning asli uchta: kishining o'z ojizligini, muhtojligini va gunohlarini bilmuoqdir.

\* \* \*

Hazratishayx Yusuf Asbatdan “Tavozuning va xokisorlikning asli nimadir?” deb so’radilar. Javob berdilar:

– Tong chog‘i uyingdan tashqariga chiqgaysan, kimni uchratsang, uni o‘zingdan yaxshiroq deb bilgaysan. Tavozuning haddi uldurki, har kim senga haq gapni so‘zlasa qabul etgaysan, sendan past bo‘lsa ham uni o‘zingdan ulug‘ deb bilgaysan va yelimdek yumshoq bo‘lgaysan, tuya kabi bo‘y sungaysan. Har kim seni so‘ksa uni maqtov o‘rnida ko‘rgaysan va har ishda Alloh taologa ruju aylagaysan. Har qachon senga yaxshilikdan yoki yomonlikdan bir narsa yetsa, shukr qilgaysan.

\* \* \*

Dononing ziynati – kamtarlik, nodonning illati – manmanlik.

\* \* \*

Zag‘izg‘on har qancha baland uchgani bilan lochin bo‘lولmaydi, zero, oltindan yasalgan kosa singani bilan bahosi kamaymaydi.

\* \* \*

Katarlik bilan umr kechirish hayotning eng go‘zal va to‘g‘ri yo‘lidir. Bu yo‘l insonni samimiyl, haqiqatgo‘y, nomusli va matonatlil bo‘lishga olib boradi.

\* \* \*

Har ishning o‘z natijasi mavjud: muloyimlik ulug‘ martaba, qanoat rohat baxsh etgani kabi, tavozu’ kishiga e’zoz keltiradi.

\* \* \*

Kamtarlikdan lazzat ololgan kishi haqiqiy kamtardir.

\* \* \*

Qo'lga kirgan muvaffaqiyatdan g'ururlanib ketib, ko'z tinishi may kayfidan qo'rquinchliroqdir. Chunki aroq kayfi bir uqlab turilsa tarqaydi. Kayfdagi aybi uchun odam izza chekadi. Mag'rurlik kayfining tarqashi qiyin. U oqibat boshga balo yog'dirishi mumkin.

\* \* \*

"Pastkash maqtangani bilan buyuk bo'lolmas, echki yugurgani bilan kiyik bo'lolmas... Takabburlik – shayton ishi va manmanlik – nodon ishi. Takabbur kishi barchaga yoqimsiz", deb yozgan hazrat Alisher Navoiy.

\* \* \*

Bilmoq kerakki, kibr kofirlarning va fir'avnlarning, tavozu' esa payg'ambar va solihlarning axloqidandir. Chunki Alloh taolo kofirlarni kibr bilan sifatladi.

\* \* \*

Qalbingda zarracha kibr bo'lsa, demak, sen musulmonchilikka tushunmabsan. Sening ibodating va toating Alloh taolo huzurida qabul bo'lmas. Bilginki, ibodat va toatning mohiyati qalbdan takabburlik hissini yo'qotishga qaratilgandir. Shuning uchun sen birinchi bo'lib qalbingdagi kibrni o'ldirginki,

Alloh taolo va uning bandalari oldida aziz bo'lasan. Ammo bu yengil ish emas, igna bilan tog'ni qazmoq, kibrni ko'ngillardan chiqarmoqdan osondir.

\* \* \*

Qalbingda zarracha kibring bo'lsa, albatta, halokatdasan. Haqiqatni ko'ra olmaydigan ko'rsan. Kibrni tashla, haqiqatni ko'rasan, haqiqiy saodatga erishasan. Ko'kda chaqnagan chaqmoq bo'lгandan ko'ra, yerda bir tutam olov bo'lib, bir g'aribning qozonini qaynatgan afzaldir.

\* \* \*

Bir donishmanddan;

- Muruvvat nima? -deb so'radilar. Donishmand:
- Qarindosh-urug', do'stu yorlardan yetgan jafolarni kechirishdir, - deb javob berdi.

Agar bir daraxt shoxlari kesilsa, o'rniga yangi novdalar ko'karib chiqadi. Ammo mehru muhabbat, rahm-shafqat niholi jafo arrasi bilan arralansa, aslo ko'karmaydi.

\* \* \*

O'zaro mehru muhabbat, marhamat, lutf, ehson va yordamlashuvning noqisligi jamiyat hamjihatligining zaifligi yoki umuman mavjud emasligining belgisidir. Chunonchi, bir binodagi tosh, temir, taxta, qum, sement va boshqa moddalar bir-biri bilan mahkam chirmashib turar ekan, bino ham mustahkam, demakdir. Qachonki ularning bog'liqligiga putur

yetguday bo'lsa, tosh, temir, qum bir-biridan ajrala boshlasa, u mustahkam bino yemirilishga yuz tutadi. Shunga o'xshab, mo'min kishilar ham bir-birlaridan uzoqlashsalar, parokanda bo'lsalar, barcha o'zi bilan o'zi ovora bo'lsa, o'sha bino singari vayron bo'ladi.

\* \* \*

Butun maxluqotga mehr bilan qaramagan kishining qalbi ilohiy marhamatdan, payg'ambarlar sunnatidan zarracha nasibador bo'lmaydi. Insoniylik shafqat va marhamat bilan boshlanadi va shu bilan nihoyalanadi. Insoniylikning asosi shafqat va marhamatdir.

\* \* \*

Rad javobini olajagini, shafqatsizning so'zlaridan ruhi azob chekishini bila turib qalbi tosh odamning eshigini taqillatgan kishini nodon, desak ranjimasin.

\* \* \*

Mavlono Rumiy dedilarki, hayajon, qo'rquv, qayg'u va alamga giriftor bo'lganlarga marhamat, shafqat qilish va ularga tasalli berib, ko'ngillarini ko'tarish insoniyatning eng oliy vazifasi va eng buyuk lazzatidir. Ammo bu lazzatni keragicha topish uchun marhamatli, sezgir va oliy qalbga ega bo'lish lozim.

\* \* \*

Charchoqni uyqu, hasrat chekkan qalbni mehr dam oldirgani kabi, muhtojlar jarohatini rahm-shafqat, dori-darmon tuzatadi.

\* \* \*

Dili qora, zulmkorlarga nisbatan rahm-shafqat qilinmaydi. Chunki ularga shafqat qilinishi natijasida, ularning yomonligi orqali boshqalarga zulm yetishi mumkin.

\* \* \*

Yomonlik urug'i ko'proq yoshlik davrida ekiladi.

\* \* \*

Yomonlikka asir bo'lishning sababi, nafsga asir bo'lishdir.

\* \* \*

Zulm naqadar sharafsiz bo'lsa, unga qarshi kurash shu qadar sharaflidir.

\* \* \*

Dunyo saodati yaxshi, xayrli insonlar bilan qoimdir.

\* \* \*

Yomonlar dunyoni odamlar uchun zindon qiladi. Zolimning uyiga yaqinlashma, undan biron narsa so'rashni xayolingdan

o'tkazma. Shunday qilsang, mard bo'lib yashaysan. Zolimga yaqinlashsang, nomard bo'lib o'lasan.

\* \* \*

Kishining qalbi, ongi jang maydoniga o'xshaydi. Bu maydonga ega chiqish uchun yaxshilik va yomonlik, shafqat va zulm tinmay jang qiladi. Bu jangda iymon quvvati bilan quvvatlangan tomongina g'olib chiqadi.

\* \* \*

Sahobalardan birining aytishicha, iymon qalbda oq nuqta bo'lib ko'rindi. Iymon quvvati oshsa, oqlik ham ziyodlashadi. Agar bandaning iymoni komil bo'lsa, qalb ham to'la oqaradi. Nifoq qalbda qora nuqta bo'lib ko'rindi. Nifoq ko'paygani sari qoralik ziyodlashadi. Qachonki nifoq to'la bo'lsa, qalb ham to'la qorayadi. Kishi qalbi qoraya boshlagan kunidan e'tiboran har turdag'i yomonliklarga banda bo'laveradi.

\* \* \*

Fonyi dunyo yaxshi va yomonlar orasidagi muhotiba maydoni. Yomonlarning g'alaba qilishiga yo'l qo'yib berilsa, olamni falokat bosadi. Balki Qiyomat yomonlik yaxshilik ustidan mutloq g'alaba qozongan kuni boshlanar?

\* \* \*

Kishi dunyoda xuddi soqchi kabi yashaydi. Yomonlikdan ko'z yumsa, yomonlik vujudini egallab, uning o'zini mahv

etadi. Zolimlar mazumlarning manfaatini o'ylamaydi. Har kishi zolimlardan uzoq turishi, ularning chiroyli gaplariga aldanmasligi lozim.

\* \* \*

Uch xil odam erishish mumkin bo'lмаган уч нарсага ерішішни орзу қиласы: гүнөн іш қилиб ўрганлар – савобни; юмонлік қиляғотганлар – ыашылғын жайтышын; умріні фосиqliк ва дилозорлық билан кечирғанлар – жаннатни.

\* \* \*

Alloh таоло бандаларини жаннатга түшішіні истайды, бироқ banda жаннат ю'лиға о'з қо'ли билан зулм тоғонині тикиб, то'sади.

\* \* \*

Kishining zolimga ergashgani – eng yomon yo'lga kirganidir.

\* \* \*

Go'zal xulq qahr-azab kelganida bilinadi.

\* \* \*

Qahr-g'azabiga g'olib bo'lgan odam о'з рохатини та'mин etadi.

Muloyimlik daraxtini ekkan kishi salomatlik mevasini teradi.

\* \* \*

Inson g'azabini yengmagunicha, qalbidagi yomonlik vasvasalaridan qutulib, komil inson bo'la olmaydi. Yomon qalbni to'g'rilash niyat va amalgam bog'liq. Kishi nafsi xohishi va ehtirosini yengmagunicha, saodatga erishmas.

G'azabini yengmagan axloqini yo'qotadi.

\* \* \*

G'azab – baxt saroyi yo'lidagi shafqatsiz qaroqchi. Bu qaroqchini yenga olmagan kimsa baxt saroyiga yetishmoqlikdan umidini uzaversin.

\* \* \*

G'azab sohibini yondirib kul qiladi, boshqalarga uchquni yetadi.

\* \* \*

Ezgu yo'l bilim yo'lining tilagi. Agar qahru g'azabga bandi ersang, barcha tirikligu kechayotgan hayoting bekordir, bekor.

\* \* \*

Halimlik – yumshoq muomalalik, dunyo ishlarida g'azab-lanmaslik musulmon farzandi uchun eng go'zal fazilatlardan biri.

\* \* \*

G'azab kul ostidagi cho'g' kabi fursat poylab yotadi. Qotib yotgan qalb tubidagi kibr uni puflab, alanga oldiradi.

\* \* \*

Ko'pincha g'iybat, ig'vo... g'azabni uyg'otadi. G'iybat ham, g'azab ham kishi ko'nglini o'ldiradi. Shu bois g'iybatdan, nafsoniy g'azabdan saqlanmoq kerak. G'azabni yenggan o'z nafsini yenga oladi.

\* \* \*

G'azab quvvatining go'zal va mo'tadil holatidan shijoat tug'iladi (g'azab quvvatining xoh kuchaygan, xoh pasaygan holatda ham aql yetovida bo'lishi shijoatdir). Agar g'azab quvvati me'yordan oshsa, bemulohaza so'zlar, uni tuta bilmaslik kabi nojo'ya harakatlar yuzaga chiqadi. G'azab quvvati me'yordan pasaysa, qo'rqoqlik tug'iladi.

\* \* \*

Iroda kuchi noo'rin qo'zg'algan g'azabni nechog'li bosa olishiga qarab o'lchanadi. Vahshiy hayvonni yengish uchun kuch va tadbir kerak. G'azabni yengishga esa temir iroda zarur.

\* \* \*

Hilm shijoatga xos olti xislatning biri bo'lib, bu xislat har qancha g'azab qo'zg'ayveradigan ish sodir bo'lganda ham o'zini bosib muloyimlik ko'rsatishdan iborat. Lug'aviy ma'nosi: muloyimlik, muloyim tabiatli bo'lishlik.

\* \* \*

Misni oltinga aylantirish mumkin emas. Lekin kishi o'zining yaxshi xulqini namoyon etishi bilan yomon xulqlini insofga keltira olishi mumkin.

\* \* \*

Bir hakimdan so'radilarkim:

– Saxovat yaxshiroqmu va yo shijoat?

Hakim dedi:

– Saxovat bo'lsa shijoatga hojat yo'qtur.

Azizlar, siz o'zingizni saxovat va karam egasi deb bilmaguningizcha shijoatli deb tushunmang. Agar shijoatli bo'lsangiz o'zingizni saxovat va karam egasi bo'lismaga majbur qilar edingiz. O'zingizgaki kuchingiz yetmasa, o'zgaga qanday ta'sir qila olasiz?

\* \* \*

Saxovat bor o'rinda shijoat ham mavjud. Kishi saxovat qilishi uchun bir qancha yomon xulqlarni, eng avvalo nafsi yengib o'tishi kerak. Saxovat riyo, minnat, baxillik kabi illatlar bilan murosa qila olmaydi.

\* \* \*

Saxovat iffatga xos yetti fazilatdan biri bo'lib, achinmasdan, ayamasdan, lekin haddan oshirmasdan, molni kerak bo'lgan o'rirlarda o'ziga, yaqinlariga, muhtojlarga sarf etishdir.

\* \* \*

Saxovatsiz odamdan ichida gavhari bo'lmanan sadafning farqi yo'q. Dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog'ining farqi yo'q.

\* \* \*

Baxil – chumoli, u don-dun, mashoq teradi.

\* \* \*

Himmat ahlining ixtisosi saxovat. Bu ulug' sifat pokiza kishilarga xos. Odam bir badan bo'lsa, himmat uning joni. Himmatlilardan olim ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi.

\* \* \*

Himmatsiz kishier sonida emas, jonsiz badanni hech kim tirik demas. Oliyhimmat odam – balandparvoz lochin. Behimmat – sichqon ovlovchi kalxat. Shunqorning maskani shohning bilagi, kalxatning joyi o'limtikning sassiq badani va so'ngagidir.

\* \* \*

Arslonning maqsadi, ov qilib, och yirtqichlarni to'yg'izmoq. Sichqonning harakati, don o'g'irlab, tugun axtarmoq. Himmatt egasi qattiq bo'lsa ham, tubanlik qilmas. Himmatsiz odam xazina topsa ham buyuklarga teng bo'lmas. Chinor daraxti bo'sh qo'lli bo'lsa-da, uning yuksakligiga nuqson yetmaydi. yer tagida yashirinib yotgan xazinaning tuproqqa foydasi tegmaydi.

Himmatli kishilarning darajasi yuksak, ammo saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksakroq.

\* \* \*

Kimning himmati baland bo'lsa, qadr-qimmati ham baland bo'ladi. Baland hammatli kishi, agar umri daraxt gulidek qisqa bo'lsa ham, xalq oldida maqbuldir. Uni hech kim dildan chiqarmaydi. Past himmatli kishi uzoq yashasa ham, uni hech kim yodlamaydi.

\* \* \*

Saxiylik – joni va borini fido eta bilishdir. Yaqin do'stlar, qavm-qarindoshlar uning marhamati va yordami bilan umr kechirib, uni duo qilgay, mahtojlar uning eshididan noumid va quruq qaytmagay. Yaxshi va sodiq do'stlar hamisha uning boshidan arimagay. Saxiy odam qiyinchilikka tushsa, lutf-karamli, oliyanob odamlar unga yordamga keladilar.

\* \* \*

Dunyo azal va abad orasida ruhning bir g'urbat diyoridir. Bayram surur va iztiroblarga to'la bu g'urbat olamida Alloh taoloning bandalariga ehson qilgan quvonch kunidir.

\* \* \*

Boylik bir omonat. Uning saodatiga va lazzatiga qovushish – mahrumlarning iztirobin his qilish, ularga shafqat va marhamat eshiklarini ochish ila bo'ladi.

\* \* \*

Miskin – hayot o'tkazishda moddiy jihatdan qiynalib qolgan kambag'al odam. "Ko'chada qolgan" – yurtida boy bo'lib, safarda bir sabab bilan iqtisodiy jihatdan nochor bo'lib qolgan odam.

\* \* \*

Sadaqa – suv olovni o'chirgani kabi, xatolarni o'chiradi. Shubhasiz, sadaqa o'z egasidan qabrlarning otashini o'chiradi. Faqat va faqat mo'mingina Qiyomat kunida sadaqasining soyasidan panoh topadi.

\* \* \*

Mardlik odamlarni xatarli daqiqalardan ajoyib ishlarga undovchi fazilat.

Davlatingdan ayrilsang – ko'p narsani yo'qotmaysan.

Nomusingdan ayrilsang – ko'p narsani yo'qotasan.

Mardligingdan ayrilsang – hamma narsangni yo'qotasan.

\* \* \*

Nodonlik mardlik bilan do'st bo'la olmaydi, nodonlikning do'sti – nomardlikdir.

\* \* \*

O'jarlikda qisman mardlik uchqunlari sezilsa-da, aslida uning ildizi kibrdan suv ichadi. Irodali odam bilan qaysar odam orasida ham farq mavjud. Iroda – aql mahsuli, o'jarlik esa nodonlik mevasi.

\* \* \*

Odamlarni afv etib, gunohlarini kechirish ulug'larga xos buyuk xususiyat hisoblanadi.

\* \* \*

Baxillik – bir zaharli tikan. Agar u kimga botsa, o'ldirmay qo'ymaydi. Baxil bugun topganini asrab qo'ysa, ertaga uning qabri bugungi ro'zg'oridek qorong'i bo'ladi.

Baxillik va shafqat bir ariqdan suv icha olmaydi. Bir vujudda ikkisi yashay olmaydi.

\* \* \*

Dunyoga maftun bo'lma va ochko'zlik qilmaginki, tiriklik mavsumi juda qisqa.

\* \* \*

Odamlar tabiatini to'rt xil bo'ladi: la'in odam o'zi ham yemaydi, boshqalarga ham yedirmaydi. Baxil o'zi yeydi, boshqalarga hech narsa bermaydi. Saxiy o'zi ham yeydi, boshqa kishilarga ham yediradi. Karim o'zi yemay, boshqalarga yediradi.

\* \* \*

Pastkash va qurumsoq kishilardan do'stlik, oshnalikni orzu qilish, toshyurak hamda qattiq ko'ngilli odamlardan marhamat va shafqat kutish, qurib qolgan daraxtdan meva kutishga o'xshaydi. Qorong'i kechadan quyosh nurini talab qilish devonalikni anglatadi.

\* \* \*

Hirs va baxillik zanjiriga bog'langan bo'yin pushaymonlik tig'i bilan kesiladi.

\* \* \*

Har baloning boshi tama, deydilar. Qush donga tama qilmasaydi, tuzoqqa ilinmasdi. Odam ochko'zlik kamarini beliga bog'lamasa, izzatining libosi xorlik palosiga almashmasdi. Tama toshi kishilarning e'tibor tarozisini yengil qiladi.

\* \* \*

Eng ko'p tama qiluvchi – baxti eng oz odamdir.

\* \* \*

Eski kiyim bilan turmoq tama bilan mol olib yurmoqdan afzal. O'lib tuproqqa ko'milish odamlarning qo'liga termilib, tama qilmoqdan ortiqdir.

\* \* \*

Odamlarga hirs va tama bilan qarash yurakka xanjar sanchgan dushmanning qilmishiga o'xshaydi. Haqning ne'mati tamagirning qo'liga tushsa chiriydi, iymoni butunlarning qo'liga tushsa – ko'payadi.

\* \* \*

Kichkinagina bola kuchli bir tuyaning boshiga no'xta urib, uni istagan yerga olib borgani kabi, tama va ochko'zlik

ham insonlarning bo'yniga arqon solib, ularni xohlagan joyga sudraydi. Asl boylik – ko'zi to'qlik va qanoatdir. Baxt-saodatning negizi ham shudir.

\* \* \*

Ochko'zlik nafsnинг sevgan farzandi va u kishi bo'yniga qullik sirtmog'ini soladi.

\* \* \*

Insonning tabiatи uch joyda ma'lum bo'ladi: safarda, ovqatlanish paytida, pul va molga tegishli oldi-berdilarda.

\* \* \*

Xudbinlik insonni zavolga, kamtarlik esa kamolga olib keladi. Kimki xudbin bo'lsa, xalq nazaridan qoladi. Kamtarlik esa e'torasida sharaf keltiradi.

\* \* \*

Yeb-ichish gunoh emas, isrof qilish gunoh. Afsuski, ba'zi kishilar yeb-ichishning xilma-xil va ko'p bo'lishini hayotning asosiy mezoni deb biladilar.

Bizda "oziq-ovqatni isrof qilish" deganda, yemay, tashlab yuborish tushuniladi. Bu aslida to'g'ri, ammo keragidan ortiq yeyish ham isrofdir.

\* \* \*

Isrof – o'rinsiz va zaruratsiz yerlarga molni sarf etmoqlik. Bu borada non va oziq-ovqatning ortib qolishinigina nazarda

tutmaslik kerak. Bir nuqtada ba'zan isrof, baxillik va saxovat to'qnash kelib qoladi. Baxillikni qadimda "buxl" deb nomlaganlar. Ya'ni "buxl" – eng zaruriy yerlardan ham molni qizg'anmoq va ayamoqdir. Saxovat esa bu ikkisining o'rtasida bo'lib, molni zarur va foydali o'rirlarga sarf qilib, zarursiz, foydasiz o'rirlardan saqlamoqdir.

\* \* \*

Oltindan qadrli, javhardan qimmatli bir narsa bor bo'lsa, u ham vaqtdir. Vaqt bizning har turli ishni qilishga kuchimiz yetadigan fursat. Bir soatning bekor o'tgani, ixtiyorimizda bo'lgan fursatning zoe bo'lgani, demak.

\* \* \*

Aqlsizlarning eng yaramas ko'rinishi – vaqtni bekorga o'tkazishdir.

\* \* \*

Miqdori ko'p narsa qadr-qimmatini tez yo'qotadi. Ammo aql egalari uchun vaqt sira qadrsizlanmaydi. Yuz yil qancha qimmatga ega bo'lsa, soat yoki daqiqaning qadri ham shu kabi. Vaqt odamiga qarab eng qimmat yoki eng arzon matohdir.

\* \* \*

Vaqtning isrofi – umrning isrofi, demak. Umr behuda sarf bo'ldimi, demak, odam yaxshi ishlarni amalga oshira olmabdi. Odamlar uchun, jamiyat uchun foya bermabdi. Vaqtning isrofi – mevasiz daraxt kabi umr kechirishdir.

\* \* \*

Vaqt musulmonlar hayotida eng ahamiyatli masalalardan biri. U Alloh taolo tomonidan insonlarga berilgan buyuk ne'matlardan hisoblanadi. Chunki u musulmon hayotidagi muammolardan biri bo'libgina qolmasdan, balki mana shu muammolar ichidagi eng asosiysidir. Binobarin, vaqt – hayot, demak. O'tayotgan har daqiqayu soniya, kun inson umrining xatosiz o'lchovidir.

\* \* \*

Yoshlik – umrning bir bo'lagi, lekin uning boshqa davrlardan ajralib turuvchi o'ziga xos qimmatliroq tarafi ham bor. Yoshlik g'ayratu shijoatga, o'tkinchi maqsadlarga to'lgan davr hamda ikki zaiflik – go'daklik va keksalik orasidagi quvvatga to'lgan yillardir.

\* \* \*

Bolalikni o'yin, yoshlikni shahvat, balog'at yoshini g'aflat bilan o'tkazish va keksalikda qo'ldan ketganlar uchun hasrat chekish, o'zini har tomon urib, nadomat ko'z yoshlarini to'kish g'ofillik bilan umr o'tkazishning alomatlaridir.

\* \* \*

Jahonning hozirgi obodligi, insoniyat va madaniyatning bu qadar taraqqiysi albatta ma'rifat egalarining bitmas-tuganmas g'ayratlari soyasida vujudga kelgan.

\* \* \*

Ayrim bolalar kitob o'qishni yaxsha ko'radilar. Bu ham a'llo fazilat. Ammo bunda ikki kamchilikdan ehtiyyot bo'lish kerak: birinchisi, ertayu kech kitobdan bosh ko'tarmay o'qish yaxshi emas. Kunning faqat ma'lum bo'lagini kitobga ajratish kerak. Ikkinchisi, qo'lga tushgan, boshqacha aytilsa, duch kelgan kitobni o'qiyverish ham yaramaydi. Kitobni tanlab-tanlab o'qish kerak.

\* \* \*

"Vaqt tez o'tadi" deymiz ko'p hollarda. Xoh shod-xurramlik va quvonch bilan o'tsin, xoh qiyin, mashaqqatli bo'lsin, bu bulut tezligida yurib, shamol tezligida o'taveradi. Bizga xursandchiligidimiz kunlari birmuncha tezroq, qayg'uli kunlarimiz sekin va og'ir o'tayotgandek tuyuladi. Lekin insonning o'ziga shunday tuyuladi, xolos.

\* \* \*

Inson umri davomida ko'p pushaymonlar yeydi. Ayrim hollarda pushaymonlar tufayli tavba qilib, to'g'ri yo'lga tushib oladi. Lekin ikki holda uning pushaymoni asqatmaydi. Birinchisi, jon berish, oxirat ostonasidan o'tish paytidagi pushaymoni. Inson oxirat sari yuzlanganda unga yana bir oz muhlat berilishini yoki yo'qotgan narsasini to'g'rilib, buzganini tuzatib olish uchun ozgina vaqtning ortga qaytarilishini orzu qiladi. Lekin, bu ilojsiz bir narsa!

Ikkinchisi, oxirat diyoriga ko'chilganida har bir jon amaliga yarasha mukofotlanib yoki jazolanib, jannatiylar

jannatga, do'zaxiyalar do'zaxga kiritilgan bir paytda do'zaxiyalar dunyo hayotiga yana bir bor qaytishni, hayotlarini qaytadan, yangidan boshlab, yaxshi amallar qilishni xohlab qoladilar. Biroq, ular istayotgan narsa haqiqatdan naqadar uzoq! Chunki u vaqtida muhlat zamoni tugallanib, hisob berish zamoni kelgan bo'ladi.

\* \* \*

Ahli donish: "Manfurlikning alomati vaqtini zoe ketkazishdir", deb ta'kidlashgan. Va yana: "Vaqt bir qilichdir, gar sen uni kesmasang, u seni kesadi!" deyishgan. Demak, bu qilichga hokim bo'lish uchun mohirlik talab etiladi. Bu qilichni yaxshi ishlata bilish, ahamiyatli narsalarni olib, ahamiyatsizlarini chetda qoldirish lozim. Bu esa haqiqatni anglab yetgan aql bilan bo'ladi. Vaqtini qadrlashning eng sinalgan yo'li – yaxshi ishlarni bajarishga intilish va shoshilishdir.

\* \* \*

Falak va yer tinmay aylanar ekan, insonlar holati ham engillik va qiyinchilik, boylik va kambag'allik, salomatlik va xastalik, xursandchilik va mahzunlik, mashaqqat va rohat orasida aylanaveradi. Bular aqli bor kimsalarga bir dars, qalbi borlarga pandu nasihat, basirat egalariga ibratdir.

\* \* \*

Vaqt oliy muallim. Ammo ne ko'rgilikki, u barcha o'quvchilarini halok qiladi.

\* \* \*

Vaqt bir oltin, uni zoe etganlarning bozor aylanib, bo'sh qo'l bilan qaytganlardan farqlari yo'qdir, bunga diqqat qilish shart. "Molu puling ketsa ketsin, biroq vaqting zoe ketmasin" deydilar. Vaqtini foydali ishlarga sarf etishni bilgan kishi molu dunyosini ham kerakli joylarga sarflashni biladi va saodat yo'lida unga to'siqlar bo'lmaydi.

\* \* \*

Foniy dunyoda ko'p savob topding, boqiy dunyoda boysan. Bu boylik ne'matini yashirishga urinmaysan. Gunohlar botqog'iga botib boardingmi, u dunyoda senga birov savob boyligidan qarz berib turq olmaydi. |

\* \* \*

Hayotda inson ba'zan halol (pok) va harom (nopok) ikki ayri yo'lga to'g'ri kelib qoladi. Ulardan qaysi birini tanlash uning aqliga, iroda kuchiga, vijdon amriga bog'liq bo'ladi. "Halollik bilan qilinmagan ish yaxshi bo'lmas, ip kalavasi hassa bo'lmas", deganlar.

\* \* \*

Bir yalqov ikkinchisiga debdi:

– Fil bo'lgim kelyapti: xartumi bilan ovqatni olib, shoshilmay yeydi. Xartumini qayoqqa uzatsa ham yetadi.

– Bo'lmaydi, – debdi ikkinchi yalqov, – ilon bo'lgan yaxshi. Ilon yotganicha ovqat yeyaveradi...

\* \* \*

Faqat o'z huzur-halovatini o'yplash, yalqovlik – muvaffaqiyat quvvatini kesuvchi bir kasallik. Ha, bu kasallik tanballikning hosilidir. Xastalikning oqibati nima bo'lishi esa ma'lum: agar o'xshatish qo'pol tuyulmasa, tanballik o'limning bir turidir. Inson bu o'lim tufayli hamma narsani yo'qotadi. Yalqovlik – erksizlik. Kishi insonlarga yuk bo'lgan kuni erkini yo'qotadi. Insonning saodatdan mahrum bo'lib, ma'yus yashashi shu yalqovlik, g'ayratsizlik natijasi. Haqiqat shuki, hali hech kim muvaffaqiyat narvoniga qo'lini cho'ntagiga suqib chiqmagan. Tanballik hech bir odamga fazilat emas, lekin olim va ilm tolibi dangasalik qilsa yanada xunuk.

\* \* \*

Bekorchi va ishyoqmas – irodasiz odam. Agar odam fikrlashda dangasa bo'lsa, jaholatga botishi, gunohi ortishi shubhasizdir.

\* \* \*

Dunyo ishi – mehnat uyidir.

\* \* \*

G'uncha bahorning iliq nafasiga aldanib bemavrid kulgani uchun sovuq yel uni poralab ketgani kabi, behuda va bemavrid boshlangan ish oqibati yaxshi bo'lmaydi.

\* \* \*

Yalqovlik illatining muqobilida “g‘ayrat” va “shijoat” deb ataluvchi go‘zal fazilatlar bor. Bu fazilat yarmi nazokatdan, yarmi saodatdan iborat, desak ham bo‘ladi.

\* \* \*

Mehnatni sevish, g‘ayrat va matonat bilan ishlashning uchta shirin mevasi bor: tan salomatligi, ko‘ngil rohati, aql va zehnning ortishi.

\* \* \*

Mehnat insonni uch balodan asraydi: yurak siqilishidan, axloqiy buzuqlikdan va muhtojlikdan.

\* \* \*

Inson mehnatdan to‘xtasa, kamolotdan ham to‘xtaydi. Chunki kamolot saroyining poydevori ham, devori ham mehnatdir.

\* \* \*

Mehnat hosili bilan yashagan inson o‘z erkiga hokim, yulg‘ichlik bilan boylik to‘plagan xasis esa o‘z iqboliga zolim.

\* \* \*

Odamning barakali va badavlat bo‘lishi uchun kasbu hunardan qimmatliroq mato yo‘q va ulug‘lik hamda saodat

osmoni uchun esa qobiliyatdan yorqinroq yulduz yo'q. Hunar suvi bilan sug'orilmagan kishi go'yoki meva va soyasi yo'q quruq daraxtga o'xshaydi. Yoki hid va rangdan xoli gulga monanddir.

\* \* \*

Deydilarki, hunar yoddan chiqmasa-da, nozik tomonlari unutiladi. Inson o'z ishini yaxshilab o'rganib, uni hech qachon qo'ldan bermasligi kerak. Bo'limg'ur xayollarga berilib, shoxdan-shoxga qo'nmasligi, har qanday gulning go'zalligiga uchavermasligi kerak.

\* \* \*

Luqmoni Hakim aytdilarki: "Og'ir tosh ko'tardim, temir ko'tardim, ammo yomon qo'shnidan og'irroq narsa ko'rmadim".

\* \* \*

Qo'shnichilik – bir chinni idish kabi, darz ketsa, izi qoladi. Shu sababli yaxshi qo'shnichilik munosabatini e'zozlagan ma'qul.

\* \* \*

Qudsiy hadisda Alloh taolo aytadi: "Ey odam farzandi! Agar uyingga mehmon kelmay qolsa, Parvardigorga "La'natni shayton yomonligidan meni O'zing saqla", deya iltijo qil.

\* \* \*

Bir donishmand aytgan ekan: "Vatan bir bog'dir. Vatanning sodiq farzandlari bu bog'ni o'z yurak qonlari ila sug'ormaklari darkordir..."

\* \* \*

Tabiat bahorining qonuniyati barcha joyda bir bo'lgani kabi,  
Vatan bog'ini ehtiyyotlash, yashnatish majburiyati ham barcha  
mamlakatlarga xosdir.

\* \* \*

Ota-onaga, Vatanga bo'lgan muhabbat fazilati faqatgina  
odam bolalariga berilgan. Shunday ekan, Vatan qadriga  
yetmaslikni Tangri ne'matlariga noshukurlik, bepisandlik, deb  
baholamoq ham mumkin.

\* \* \*

Vatan ravnaqi – qudratli iqtisodiy kuchga aylanishdir. Ayni  
chog'da insonning ruhiyat, ma'naviyat jihatdan qudratli qal'aga  
aylanimog'i hamdir. Vatan yuksalishini o'ylamak, bir paytlar  
qo'ldan ketgan hurriyat va nomusni o'z o'rniiga keltirishga  
harakat etmoqlikdir.

\* \* \*

Vatandan olganimiz qarz, qarzni esa qaytarmoqlik farz.

\* \* \*

Ilmdan yiroqlashish – jaholat, mamlakat taraqqiyotining  
birinchi dushmani bo'lsa, ikkinchi dushmani, ana shu nafs,  
boyishga va faqat boyishgagina intilishdir. "Vatan manfaati" va  
"nafs" degan tushunchalar bir-biri bilan kelisha olmaydi. Nafs  
g'olib yerda xiyonat eshiklari ochiladi.

\* \* \*

Vatanga mehr-muhabbatli bo'lish g'oyat chidam, g'oyat yuksak ong talab etuvchi o'ziga xos ilm va buni egallash ham beshikdan boshlanmog'i va oqibat so'nggi nafasga qadar davom etmog'i lozim.

\* \* \*

Vatanparvarlik Vatanni sevmoqlikni anglatsa, bu ilmni egallagan kishi Vatanga jonini atagan komil inson martabasiga yetgan bo'ladi.

\* \* \*

Vatanparvarlik Vatanga mehr qo'yishdangina iborat emas, balki Vatan bilan o'zini bir butunlikda ko'rish. Uning yaxshi-yomon kunlarida asqatishdir.

\* \* \*

Silai rahm fazilati kamol topgan oiladan Vatanga xiyonat qiluvchi chiqmaydi.

\* \* \*

Bolalarga e'tiborsizlik millatlar istiqbolini tahlikaga soladi. Yaxshi millatlar bolalarini yaxshi ulg'aytiradi. Bolalarni qo'riqlagan – kelajagini himoyalaydi.

\* \* \*

Qarilarning tavba qilganlari qanday yaxshi, ammo yoshlar tavba qilsalar, undan-da yaxshi.

\* \* \*

Yoshlarning gunoh qilishlari xunuk, lekin keksalarniki undan-da xunuk.

\* \* \*

Inson uchun jasurlik – sharaf, qo'riqlash ordir.

\* \* \*

Nogahon g'am kelsa senga, o'zni tut, bo'lma tajang,  
Shukr qilg'il, toki battarrog'iga bo'lma duchor.  
Sen ishongil, g'am yema, sabr ayla, ey dil oqibat,  
Shomdan tong, kechadan kunduz kelur, qishdan bahor...

(Hofiz Sheroziy)

\* \* \*

Noshukurlik yoshlarga tez yuqadigan xastalik. Ularga har bir narsa kamday tuyulaveradi. Qizlar, kelinlar bu borada ancha peshqadam. Ular ko'ngillarini havasga butunlay bo'shatib berib, shukronalikka joy qoldirmaydilar.

\* \* \*

Ne'matni bilgan – shukr qiluvchi, bilmagan – kufr qiluvchi bo'ladi.

\* \* \*

Maslahat marvaridga o'xshaydi. Odamlar tosh bo'lsa, ular orasidan birorta nodir so'z, marvardid chiqishi mumkin.

**MUNDARIJA**

Ishq .....	3
Baxt .....	25
Saodat .....	71

*Adabiy-badiiy nashr*

Tohir Malik

## **HUSNI XULQ**

*Muharrir I. Zoyirov*

*Badiiy muharrir Sh. Mirfayozov*

*Texnik muharrir Y. Koryagina*

*Musahhih D. To'ychieva*

*Kompyuterda sahifalovchi B. Tuxtarov*

Nashriyot litsenziyasi raqami AI № 290. 04.11.2016.

2016 yil 16 noyabrdagi bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 70x108 '/<sub>32</sub> Arno Pro garniturasi.

Ofset bosma. 6,3 shartli bosma toboq. 4,63 nashr tobog'i.

Adadi 5000 nusxa. 20 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnomaga asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa

ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.

Telefonlar: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

[www.gglit.uz](http://www.gglit.uz)    [info@gglit.uz](mailto:info@gglit.uz)





ISBN 978-9943-03-967-4



9 789943 039674

